O'zida korporativ muomalaning umumiy qoidalarini aks ettirgan yuridik shaxslar va ularning ta'xis hujjatlarini tashkil etish to'g'risidagi me'yorlar, yuridik shaxsning organlari va uning vakolatlari, yuridik shaxs faoliyatini litsenziyalash kabi tashkiliy huquqiy xarakterdagi masalalarni hal etishga qaratilgan me'yorlar, fuqarolik-huquqiy tartibga solishning predmeti hisoblangan munosabatlar doirasini kengaytirishga yordam berdi. Ular to'la ravishda korporativ huquq me'yorlarida o'z aksini topdi.

Tuzilmalarning tashkiliy-huquqiy shakli (xo'jalik shirkatlari, jamiyatlar, nodavlat ijtimoiy jamg'armalar va boshqalar) o'z tabiatiga ko'ra fuqarolik huquqiy xarakterga ega bo'lgan mulkiy munosabatlarni tashkil etish va amalga oshirish bilan bevosita bog'liq bo'lib hisoblanadi. Bu ham korporativ huquqning fuqarolik huquqining tarmog'i ekanligini yana bir bor tasdiqlaydi. Bunday tasdiqlash huquqiy manbalarning birligi bilan ham asoslanadi. Turli ko'rinishdagi xo'jalik tuzilmalarini tashkil etish va ularning faoliyatini amalga oshirish masalalariga tegishli fuqarolik-huquqiy munosabatlar to'liq tarzda va korporativ-huquqiy munosabatlari qisman O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi va boshqa me'yoriy hujjatlar bilan tartibga solinadi.

Huquq me'yorlari o'zining ichki birligi tufayli ijtimoiy munosabatlarni shaxs, jamiyat va davlat manfaatlaridan kelib chiqqan holda bir xillik va maqsadga yo'naltirilgan holda tartibga solishning asosi hisoblangan alohida tarmoqlardan (konstitutsiyaviy, ma'muriy, fuqarolik, oila, mehnat, yer, jinoyat protsessi, fuqarolik protsessi va boshqalar) tashkil topadi. Shu bilan birga huquq tarmoqlari ular tomonidan tartibga solinayotgan ijtimoiy munosabatlarning

xususiyati va ushbu munosabatlarda ishtirok etuvchi subyektlarning vakolatlilikidan kelib chiqib ikki asosiy turkumga bo'linadi: ommaviy-huquqiy va xususiy-huquqiy. Korporativ huquq ma'lum darajada ommaviy huquq va asosan xususiy huquq me'yorlaridan tashkil topib, fuqarolik huquqining kichik tarmog'i sifatida xususiy huquq tizimida alohida o'rin egallaydi.

Korporativ tijorat faoliyatining huquqiy tartibga solinishini huquqning muayyan bir sohasiga kiritish juda murakkab masala bo'lib hisoblanadi. Haqiqatdan ham ommaviy yoki xususiy huquq tizimidan qaysi birining me'yorlari korporativ faoliyatni tartibga solishda ustunlikka ega va tegishli korporativ huquq ushbu tizimlardan qaysi birining tuzilishidan o'rin egallaydi. Ushbu masalani hal qilish uchun iqtisodiy munosabatlarni tartibga solishning rivojlangan mexanizmi busiz bo'lmaydigan ommaviy va xususiy huquq o'rtasidagi eng maqbul o'zaro munosabatni aniqlash lozim.

Xulosa qilib aytganda yuridik shaxslar tomonidan amalga oshiriladigan har qanday ijtimoiy huquqiy munosabatlar fuqarolik qonunchiligi bilan uzviy bog'liq hisoblanadi. Yuridik va jismoniy shaxslarning ijtimoiy-iqtisodiy mulkiy va nomulkiy jihatdan munosabatga kirishishida fuqarolik qonun hujjatlarining ro'li muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 30.04.2023. (lex.uz)
2. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi (birinchi qism) 21.12.1995. (lex.uz)
3. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi (ikkinchi qism) 29.08.1996. (lex.uz)
4. "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida O'RQ-370-сон 06.05.2014. (lex.uz)
5. "Mas'uliyati cheklangan hamda qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni. 310-II-son 06.12.2001. (lex.uz)
6. R.H.Rahmonqulovich, G.S.Saidaxrorovich. "Korporativ huquq" darslik, TDYI. Toshkent:. - 2008

MUSTAQILLIK DAVRIDA O'ZBEKISTONDA EKOLOGIK HOLATNI BARQARORLASHTIRISHNING HUQUQIY ASOSLARI

A'zamov Asliddin Akramovich

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

Tarix (yo'nalishlar va faoliyat turlari) yo'nalishi

I bosqich magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada mustaqillik davrida O'zbekistonda ekologik holatni yaxshilash, tabiatni va atrof - muhitni muhofa qilish borasida qabul qilingan qonun hujjatlari bayon etiladi. Bu boradagi qabul qilingan meyoriy hujjatlar va qilingan ishlarga doir xulosalar keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: mustaqillik, O'zbekiston, ekologiya, atrof-muhit, meyoriy hujjatlar, tabiat, muhofaza qilish.

KIRISH

XX asr oxiri va XXI asr boshlarida insoniyat misli ko'rilmagan darjada tahlikali ekologik muammolarga duch keldi. Bundan ikki asr muqaddam odamlar quvunch bilan kutub olgan texnikalar hamda zavod va fabrikardan chiqayotgan zaharli gazlar biz bilmagan holda dunyoimizni va ona tabiatimizni yo'q qilmoqda. Bu esa dunyo davlatlarini ekologik muammolarni oldini olishda o'zaro hamkorlik qilishni kuchaytirib, bunga doir xalqaro shartnomalar, qonun hujjatlari va qat'iy belgilan tartiblarni joriy qilishni o'rta qo'ymoqda. Afsuski, go'zal vatanimiz O'zbekiston ham bundan chetda qolmayapdi. Vatanimizga ham ko'plab ekologik muammolar tahdid solmoqda. Havoning ifloslanishi, Iqlimning keskin isib borishi, ichimlik suving kamayishi, Orol fojiasi, Janubiy hudidlarda yerlarning sho'rlanishi va shunga o'xshash ko'plab muammolar bizni domiga tortib bormoqda. Bu va bunga o'xshash muammolarni oldini olish maqsadida, mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab yurtimizda ekologiyaga oid ko'plab qonunlar va meyoriy hujjatlar qabul qilindi. Aytish mumkinki, O'zbekiston 1992-yil 8-fevralda MDH davlatlari rahbarlari tomonidan imzolangan shartnomaga muvofiq tuzilgan Davlatlararo Ekologiya Kengashining to'la huquqli a'zosi hisoblanadi.

Yurtboshimiz ekologik muammolarni oldini olish maqsadida ko'plab xalqaro sessiyalarda, anjumanlarda va mittinglarda so'zga chiqib, bu kabi ekologik muammolarni oldini olish barchamizning pirovard maqsadimiz ekanligini, hamda birgalikda harakat qilishimiz kerakligini qayta, qayta takrorlab o'tdilar. Misol sifatida: Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2017-yil 19-sentabr kuni Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so'zga chiqdilar. Nutqida, bugungi kunning eng dolzarb muammolaridan biri – Orol fojiasiga alohida to'xtalib o'tdib, orol muammosi barchamizning muammomiz deya takidlab o'tdilar.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

1992-yil iyun oyida Rio-de Janeyroda bo'lib o'tgan BMT ning Atrof muhit va rivojlanish bo'yicha xalqaro konferensiyasidan so'ng atrof muhit muammolari dunyo hamjamiyati uchun yangi ahamiyat kasb etdi.¹ 1992-yil 9-dekabrda qabul qilingan "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida" gi ekologiya va atrof muhitni himoya qilish sohasidagi asosiy qonun hisoblanadi. 1993-yili "Suv va suvdan foydalanish to'g'risida" va "Alohida muhofaza qilinadigan tabiiy hududlar to'g'risida", 1996-yilda O'zbekiston Respublikasining "Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risida"gi qonunlar qabul qilindi. Mazkur qonunlar qabul qilingandan keyin O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi tomonidan vazirliklar, idoralar, tashkilotlar va korxonalar bilan birgalikda atmosfera havosiga salbiy ta'sirni kamaytirish choralari ma'lum tizimga solindi.

2007-yil oxirlariga ko'ra atmosferaga chiqarilayotgan ifloslantiruvchi moddalarning jami hajmi 2 mln tonnagacha kamaydi. "Ekologik ekspertiza to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining qonuni 2000-yilda qabul qilinishi atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida katta ahamiyatga ega bo'ldi. Mazkur qonunning qabul qilinishi bilan Davlat ekologik ekspertizasining aniq vazifalari belgilab berildi. Prezidentimizning 2017-yil 21-apreldagi "Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi farmoniga muvofiq Respublikada ekologik xavfsizlikni ta'minlash va atrof-muhitni davlat boshqaruvini tubdan takomillashtirish, ekologik holatni yaxshilash, chiqindilarning fuqarolar sog'ligiga zararli ta'sirini oldini olish, aholi darajasi va sifatini oshirish uchun qulay sharoitlar yaratish, maishiy chiqindilarni yig'ish, saqlash tashish, utilizasiya qilish, qayta ishlash va ko'mish tizimini yanada takomillashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi qaytadan O'zbekiston Respublikasi ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi etib tashkil etildi.

O'zbekiston Respublikasi 1993-yilda "Ozon qatlamini muhofaza qilish bo'yicha" Vena konvensiyasiga, 1995-yilda "Biologik xilma-xillik to'g'risida"gi Konvensiyaga, "Butun jahon madaniy va tabiiy meroslarni muhofaza qilish to'g'risida"gi konvensiyaga, 1997-yilda "Yo'qolib ketish xavfi ostida bo'lgan yovvoyi fauna va flora turlari bilan xalqaro savdo qilish to'g'risida"gi konvensiyaga, 1998-yilda esa "Yovvoyi hayvonlarning ko'chib yuruvchi turlarini muhofaza qilish" bo'yicha konvensiyaga, shuningdek, tabiatni muhofaza qilish bo'yicha hamkorlik sohasidagi qator davlatlararo

¹ Ashurov.M.S, SHokirova.Yu.S "Ekologik muammolar va ularni hal qilishda ekologik menejmentning strategik yo'nalishlari" Farg'ona 2021. Turdimambetov I., Madreymov A., Foldvary L., Oteuliev M., Kurbanov M., Utarbaeva K., Bekanov K. Influence of Adverse Ecological Factors on the Incidence of Malignant Neoplasms. E3S Web Conf. Volume 227, 2021, Annual International Scientific Conference on Geoinformatics – GI 2021: "Supporting sustainable development by GIST".

bitimlarga qo'shilgan². Vatanimizda, 1999-2005-yillarda atrof muhitni muhofaza qilish asnosida 1999-yil 29-oktabrda Vazirlar Mahkamasining "O'zbekistonda 1999-2005-yillarda atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha harakatlar dasturi" qabul qilindi.³ Bu dastur negizida O'zbekistonda ekologik holatni yaxshilash bo'yicha 165 ta tadbir rejalashtirilgan edi.

2005-yilning avgust sanasiga ko'ra ushbu tadbirning 82.4 foizi yoki 136 tasi bajarildi. Ushbu tadbir natijasida atmosferaga ifloslangan moddalarning tashlanishi 2,1 ming tonnadan ko'proqqa kamaytirildi, etillashtirilgan benzin ishlab chiqarish 16,9 foizni tashkil etdi. Dasturni bajarish yillari davomida Davlat tabiatni muhofaza qilish qo'mitasi mutaxassislari, aloqador vazirliklar, idora va tashkilotlar bilan birgalikda O'zbekistonda quyidagi 5 ta qonun qabul qilindi. SHulardan: 2000-yil 25-mayda "Ekologiya ekspertiza to'g'risida", 2000-yil 31-avgust sanasida "Radiatsion xavfsizlik to'g'risida", 2002-yil 5-aprelida "Chiqindilar to'g'risida" va "Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to'g'risida" 2004-yil 13-dekabrda qabul qilindi. Bundan tashqari. yurtimizning janubiy hududlarida ham ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish yuzasidan ko'plab tadbirlar amalga oshirildi.

Qashqadaryo viloyati tabiatni muhofaza qilish bo'limi tomonidan Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 27-may sanasidagi 142-sonli qarori bilan tasdiqlangan "2013-2017-yillarda O'zbekiston Respublikasi atrof-muhitni muhofaza qilish ishlari dasturi to'g'risida"gi dasturga asosan Qashqadaryo viloyati bo'yicha 17 ta tadbir ishlab chiqildi.² 2023-yil 5-may sanasida "Surxondaryo viloyatida tuman va shaharlar darajasida tabiat resurslaridan oqilona foydalanish va atrof-muhitni muhofaza qilish, hududlarda ekologik vaziyatni yaxshilash, viloyatni chiqindisiz hududga aylantirish borasida ekologik dasturni tasdiqlash to'g'risida" Xalq deputatlari Surxondaryo viloyati kengashining qarori ham qabul qilindi. Shu kabi ekologiyaga oid qonunlar, qarorlar va meyoriy hujjatlar har yili O'zbekistonning har bir viloyat va hududlarida joriy qilinmoqda³.

XULOSA

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Bugungi kunda har daqiqada vatanimizning 9 kvadrat metr hududi cho'llanib bormoqda, ekologik muammolar esa kun sayin shiddat bilan o'sib bormoqda, Agar biz Ona tabiatimizni himoya qilmasak, yo'qorida ko'rsatilgan qonunlar bilkan tanishib, ularga rioya qilmasak, transport va zavodlardan chiqayotgan zaharli gazlarni kamaytirmasak, tabiiy resurslardan oqilona foydalanmasak dunyoimiz ko'z o'ngimizda xarob bo'ladi. Bizdan keyingi avlodlarga

¹ |X.T.Tursunov, T.U.Rahimova."Ekologiya' Toshkent 2006. 2.Abdunazarov H.M., Choriev.A.Q., Embergenov N.J., Oteuliev M.O. Issues of human economic activity and environmental protection. "Экономика и социум" №11(78) 2020, P. 23-26.3. Xolmo'minov J. "Tabiat va ekologiyani muhofaza qilishning huquqiy asoslari" T. 2015

¹ O'zbekiston Respublikasi qonunlari to'plami. (2000-2005 yillar). – Toshkent: "Adolat", 2007. – B 216- 482.

2. Qashqadaryo viloyatining 2013-2017 yillarda atrof muhitni muhofaza qilish bo'yicha xududiy dasturdagi tadbirlarning 2015 yil davomida bajarilishi bo'yicha taxliliy ma'lumot. Bayonnoma – 18. –B 9-13.

suvsiz, issiq, har xil kasallik va epidemiyalar avj olgan, zaharli gazlarga boy vatanni meros qoldirishimizga to'g'ri keladi. Axir bejizga O'rta Osiyo xalqlarining eng qadimgi kitobi "AVESTO" da Tuproq, Suv, Havo va Olov ulug'lanmagan. Bular 4 unsurlar bo'lib, ularni iflos qilish eng kata gunoh bo'lgan. Keling, Bugundan bir tanu jon bo'lib ona zaminni asraylik, Tabiatni va Qonunlarni hurmat qilib avlodlarga maqtagulik yurtni meros qoldiraylik.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ashurov.M.S, SHokirova.Yu.S "Ekologik muammolar va ularni hal qilishda ekologik menejmentning strategik yo'nalishlari" Farg'ona 2021
2. X.T.Tursunov, T.U.Rahimova."Ekologiya" Toshkent 2006.
3. Abdunazarov H.M., Choriev.A.Q., Embergenov N.J., Oteuliev M.O. Issues of human economic activity and environmental protection. "Экономика и социум" №11(78) 2020, P. 23-26.
4. K.A.Allanov, A.Q.Choriev, N.J.Embergenov. Ecological Condition of Surkhan Oasis and its Impact on the Health of the Population. Science and education in Karakalpakstan. №1. – Nukus, 2020. p.101-103.
5. N.J.Embergenov, Kh.Abdunazarov, M.Umarova, Kh.Niyozov. Issues of Development of Industrial Sectors in Surkhandarya Province. Science and education in Karakalpakstan. №3. – Nukus, 2019. p.99-102.
6. Navruzbaeva, G. T., Embergenov, N. J., Oteuliev, M. O. (2018) "Study of The Contemporary State of the Environment and The Status of Population Health in The Conditions of Southern Aral Region, Karakalpak Scientific Journal. Vol. 2, Iss. 1. 2018, -P. 29-31.
7. Turdimambetov I., Madreymov A., Foldvary L., Oteuliev M., Kurbanov M., Utarbaeva K., Bekanov K. Influence of Adverse Ecological Factors on the Incidence of Malignant Neoplasms. E3S Web Conf. Volume 227, 2021, Annual International Scientific Conference on Geoinformatics – GI 2021: "Supporting sustainable development by GIST". <https://doi.org/10.1051/e3sconf/202122702001>.

Axmedov Rustam Abdullayevich

Urganch davlat universiteti "Huquq" kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqola inson huquqi va inson qadr-qimmati o'rtasidagi murakkab munosabatlarni o'rganadi, odamlar tomonidan ishlab chiqilgan Qonunchilik bazasi va shaxslarning o'ziga xos qiymati va qiymati o'rtasidagi dinamik o'zaro ta'sirni o'rganadi. Keng qamrovli adabiyot tahlilini asosiy tushunchalarni o'rganish bilan birlashtirib, ushbu maqola huquqiy tizimlarning inson qadr-qimmatini himoya qilish yoki ularga qarshi chiqish usullarini yoritishga qaratilgan. Metodlar bo'limida ushbu tadqiqotni o'tkazishda olingan yondashuv, so'ngra natijalar, munozaralar, xulosalar va kelajakdagi tadqiqotlar uchun takliflar ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: Inson huquqi, inson qadr-qimmati, huquqiy asos, shaxs huquqlari, adolat, axloq, axloqiy mulohazalar, ijtimoiy shartnomalar.

Inson qadr-qimmati tushunchasi butun dunyo jamiyatlarining axloqiy tuzilishi uchun asosdir. Bu adolatli va adolatli jamiyatni tarbiyalashga qaratilgan qonunlarni yaratish va amalga oshirishga asos bo'lgan etakchi tamoyil bo'lib xizmat qiladi. Ushbu maqola mavjud adabiyotlarni tahlil qilish, ushbu tadqiqotda qo'llanilgan usullarni o'rganish, natijalarni taqdim etish va kelajakdagi tadqiqotlar uchun xulosalar va takliflar bilan yakunlanadigan puxta muhokamaga kirish orqali inson qonuni va inson qadr-qimmati o'rtasidagi murakkab munosabatlarni ochishga qaratilgan.

Ko'plab olimlar inson huquqi va inson qadr-qimmati bilan bog'liq bo'lib, huquqiy tizimlar shaxslarning o'ziga xos qiymatini himoya qilish yoki buzishda muhim rol o'ynashini ta'kidladilar. Asosiy mavzularga shaxs huquqlarini himoya qilish, adolatga intilish va huquqiy landshaftni shakllantiradigan axloqiy mulohazalar kiradi. [Muallif 1] kabi olimlar inson qadr-qimmati huquqiy asoslarning asosi ekanligini ta'kidlaydilar, [Muallif 2] esa ba'zi huquqiy tuzilmalar beixtiyor shaxs qadr-qimmatini buzishi mumkin deb ta'kidlaydi.

Inson huquqi va inson qadr-qimmati o'rtasidagi munosabatlarni o'rganish uchun maqolalar, kitoblar va huquqiy hujjatlarni qamrab olgan keng qamrovli adabiyotlar sharhi o'tkazildi. Ushbu ikki tushunchaning o'zaro ta'sirini yoritadigan asosiy mavzular, nazariy asoslar va empirik tadqiqotlarni aniqlashga e'tibor qaratildi. Bundan tashqari, huquqiy tizimlar inson qadr-qimmatiga qanday ta'sir qilishiga oid haqiqiy misollarni taqdim etish uchun amaliy tadqiqotlar tahlil qilindi.

Inson huquqi va inson qadr-qimmati o'rtasidagi munosabatlar huquqiy, axloqiy va falsafiy mulohazalarni o'z ichiga olgan murakkab va ko'p qirrali mavzudir. Inson qadr-qimmati har bir shaxsning xususiyatlari, holati yoki qobiliyatidan qat'i nazar, uning

ichki qiymati va qadr-qimmatini anglatadi. Bu ko'pincha munozaralarda asosiy printsipl deb hisoblanadi inson huquqlari va axloq qoidalari.

Boshqa tomondan, inson huquqi jamiyatlar tomonidan xulq-atvorni tartibga solish, nizolarni hal qilish va tartibni saqlash uchun yaratilgan huquqiy asoslar va tizimlarni qamrab oladi. Inson huquqi va inson qadr-qimmatining kesishishi bir nechta muhim savollar va mulohazalarni keltirib chiqaradi:

Inson qadr-qimmatini huquqiy himoya qilish:

- Dunyo bo'ylab ko'plab huquqiy tizimlar inson qadr-qimmatini bilan chambarchas bog'liq bo'lgan ba'zi asosiy inson huquqlarini tan oladi va himoya qiladi. Ushbu huquqlar yashash huquqi, erkinlik, shaxsiy hayot va qiynoqlar yoki shafqatsiz muomaladan ozodlikni o'z ichiga olishi mumkin.

Tenglik va kamsitmaslik:

- Inson qadr-qimmatini ko'pincha tenglik va kamsitmaslik tamoyillari bilan bog'liq. Irqi, jinsi, dini va boshqa xususiyatlaridan qat'i nazar, barcha shaxslarga teng munosabatda bo'lish va himoya qilishni targ'ib qiluvchi qonunlar inson qadr-qimmatini himoya qilishga yordam beradi.

Avtonomiya va shaxsiy erkinlik:

- Shaxsiy avtonomiya va shaxsiy erkinlikni hurmat qilish inson qadr-qimmatini himoya qilish uchun juda muhimdir. So'z, so'z va vijdon erkinligini himoya qiluvchi qonunlar shaxslar munosib yashashi mumkin bo'lgan muhitni rivojlantirishga yordam beradi.

Jazo va Adolat:

- Huquqiy tizimlar adolat va jazoga bo'lgan ehtiyojni inson qadr-qimmatini hurmat qilish bilan muvozanatlashtirishi kerak. Shafqatsiz yoki qadr-qimmatni kamsituvchi jazo, masalan, inson qadr-qimmatini tamoyillarini va inson huquqlari bo'yicha xalqaro standartlarni buzishi mumkin.

Bioetika va inson qadr-qimmatini:

- Texnologiya va tibbiyotdagi yutuqlar axloqiy va huquqiy muammolarni keltirib chiqaradi. Genetik muhandislik, reproduktiv texnologiyalar va umr bo'yi qarorlar kabi masalalar individual avtonomiyani inson qadr-qimmatini kengroq hisobga olish bilan qanday muvozanatlash haqida savollar tug'diradi.

Madaniy va Global istiqbollari:

- Turli madaniyatlarda inson qadr-qimmatini turlicha talqin qilinishi mumkin va huquqiy tizimlar ushbu madaniy qadriyatlarni aks ettirishi mumkin. Inson huquqlari standartlarini o'rnatish bo'yicha Global sa'y-harakatlar inson qadr-qimmatini hurmat qiladigan va qo'llab-quvvatlaydigan umumiy zamin yaratishga qaratilgan.

Aslida, inson huquqi va inson qadr-qimmatini o'rtasidagi munosabatlar huquqiy, axloqiy va falsafiy tamoyillar o'rtasidagi doimiy muloqotni o'z ichiga oladi. Inson qadr-qimmatini himoya qilishni birinchi o'ringa qo'yadigan huquqiy tizimlar har bir shaxsning o'ziga xos qadr-qimmatini tan olib, adolatli va insonparvar jamiyatga hissa

qo'shadi. Huquqiy asoslar inson qadr-qimmatini himoya qiluvchi tamoyillarni izchil qo'llab-quvvatlagan holda o'zgaruvchan ijtimoiy qadriyatlarga moslashish va moslashish uchun muhimdir.

Muhokama bo'limi inson huquqi va inson qadr-qimmatini o'rtasidagi munosabatlarning nuanslarini o'rganadi. Axloqiy mulohazalar, shaxs huquqlari va ijtimoiy manfaatlar o'rtasidagi muvozanat va madaniy va tarixiy kontekstlarning ta'siri o'rganiladi. Bo'lim inson qadr-qimmatini saqlashda huquqiy asoslar tomonidan taqdim etilgan muammolar va imkoniyatlar to'g'risida yaxlit tushuncha berishga qaratilgan.

Xulosalar:

Xulosa qilib aytganda, ushbu maqolada inson qonuni va inson qadr-qimmatini o'rtasidagi murakkab o'zaro bog'liqlik ta'kidlangan. Tadqiqot har bir shaxsning o'ziga xos qiymatini himoya qilish va targ'ib qilishga faol intilayotgan hushyor va axloqiy ma'lumotli huquqiy tizimning muhimligini ta'kidlaydi. Ko'pgina huquqiy asoslar inson qadr-qimmatini tamoyillariga mos keladigan bo'lsa-da, qonunlarning ijtimoiy qadriyatlar bilan uyg'unlikda rivojlanishini ta'minlash uchun doimiy ravishda tekshirish va moslashishga ehtiyoj bor.

Ushbu sohadagi kelajakdagi tadqiqotlar tez rivojlanayotgan texnologiyalar, globallashuv va o'zgaruvchan madaniy me'yorlar sharoitida paydo bo'layotgan huquqiy muammolarni o'rganishi kerak. Bundan tashqari, inson qadr-qimmatini birinchi o'ringa qo'yadigan huquqiy tizimni rivojlantirishda ta'lim va advokatlikning rolini o'rganish siyosatchilar va yuridik amaliyotchilar uchun qimmatli tushunchalarni berishi mumkin.

Adabiyotlar:

1. Инсон ҳуқуқлари: Парламент аъзолари учун қўлланма. - Тошкент: Baktria press, 2019.

2. Новый Узбекистан и права человека. Информация о состоянии соблюдения международных обязательств Республики Узбекистан в области прав человека. – Ташкент: Национальный центр Республики Узбекистан по правам человека, 2020.

3. Абдуллаев, Д. Х. (2020). Экологическое воспитание молодежи. Вестник науки и образования, (15-2 (93)), 53-55.

4. Абдуллаев, Д. Х. (2019). Взаимоотношения личности и массовой культуры в современном обществе. Достижения науки и образования, (7 (48)), 112-114.

5. Абдуллаев, Д. Х., Курбонбоева, А. У. К., & Меркурьева, А. Ю. (2022). КУЛЬТУРНО-ИСТОРИЧЕСКОЕ НАСЛЕДИЕ УЗБЕКИСТАНА ОСНОВА ТРЕТЬЕГО РЕНЕССАНСА. Academic research in educational sciences, 3(TSTU Conference 1), 540-544

SOME INTERACTIVE ASPECTS OF TEACHING ENGLISH

Almardanova Zebo Khamzayevna

*Teacher of Academic lyceum of Karshi Institute of
Engineering and Economics*

Normakhmatov Golib Gani ugli

*Teacher of Academic lyceum of Karshi Institute of
Engineering and Economics*

Dzhurayeva Shakhnoza Ismatovna

*Teacher of Academic lyceum of Karshi Institute of
Engineering and Economics*

Abstract. The article presents the authors' experience in using interactive teaching methods in English classes when working with students of the faculties of law and economics. Interactive teaching methods give students the opportunity to take an active part in the educational process, form and develop their cognitive activity.

Keywords: interactive methods, brainstorm, business game, role-playing game, project method, multimedia, English language, educational process.

INTRODUCTION

The introduction of interactive forms of learning is one of the most important areas for improving student training in a modern university. New views on learning are not always accepted by teachers, but it cannot be ignored that using active approaches is the most effective way to promote student learning. Students understand and remember the material they have learned through active engagement in the learning process.

MATERIALS AND METHODS

Consequently, in the learning process it is necessary to use methods that allow one to be involved in the situation being studied, encourage active action, experience a state of success and motivate one's behavior. Based on this, the main methodological innovations today are associated with the use of interactive teaching methods, because they are the ones who best meet all these requirements [1]. They allow you to most effectively organize individual, pair and group work, use project work, role-playing games, work with documents and various sources of information. Due to the fact that interactive methods are based on the principles of interaction, student activity, reliance on group experience, and mandatory feedback, they give the teacher the opportunity to create an educational communication environment that is characterized by openness, constant contact between participants, and equality of their arguments. com, the accumulation of joint knowledge, the possibility of mutual assessment and control.

The leading teacher, along with new knowledge, leads the training participants to an independent search. The activity of the teacher gives way to the activity of students, his task becomes creating conditions for their initiative.

RESULTS AND DISCUSSION

Interactive (“inter” is mutual, “act” is to act) means to interact, to be in the mode of conversation, dialogue with someone. In other words, unlike active methods, interactive ones are focused on broader interaction of students not only with the teacher, but also with each other and on the dominance of student activity in the learning process. The place of the teacher in interactive classes comes down to directing the students’ activities to achieve the goals of the lesson. The teacher also develops a lesson plan (usually, these are interactive exercises and assignments during which the student learns the material) [3].

The objectives of interactive forms of training are:

- effective assimilation of educational material;
- awakening students' interest;
- establishing interaction between students, teaching teamwork skills, showing tolerance for any point of view, respect for everyone’s right to freedom of speech, their dignity;
- students’ independent search for ways and options for solving a given educational task (choosing one of the proposed options or finding their own option and justifying the solution);
- formation of life and professional skills;
- reaching the level of conscious competence of the student.

When using interactive forms, the role of the teacher changes and ceases to be central. He only regulates the process and is engaged in its general organization, prepares the necessary tasks in advance and formulates questions or topics for discussion in groups, gives consultations, controls the time and order of implementation of the planned plan [3].

The methodological training of the teacher plays a huge role in preparing and conducting interactive classes. After all, in order for the lesson to be carried out with maximum efficiency, he must be proficient in these techniques, have the skills to use computer and Internet technologies, and skillfully handle modern technology (computers, interactive whiteboards, etc.).

It is well known that a language is best learned in an original language environment. But not everyone and not always have this opportunity. Therefore, it is very important in English classes to be as close as possible to the original environment. In particular, at an open English lesson in the first year of the Faculty of Law, students were invited to participate in a play court session “Guilty or not guilty?” on the topic “Crime and Punishment”. All students in the group were involved in this role-playing

game. They expressed their point of view and personal attitude to this problem through interactive communication.

The project method is one of the most favorite interactive teaching methods among students. For example, second-year students in the economics department are required to defend projects as part of their professional module. At the same time, they perceive this task with great enthusiasm. Defense, as a rule, is organized in a specially equipped multimedia auditorium. Students present their presentations on current issues of economics and business, answer questions from their classmates, teachers, and guests present. Students manage to process scientific and journalistic material on the topic in a short time, master a large amount of professional vocabulary, and select interesting video and audio accompaniment for their speeches. Complex topics such as Taxation, Banking, Trade, Marketing, Advertising, Inflation and Unemployment and others require a high level of language proficiency.

The study of educational, cognitive and socio-cultural modules in English in the first year of the economics department also usually ends with the public defense of projects in English. The work carried out by students under the guidance of teachers is associated not only with the search for linguistic material on the topic, but also with the preparation of a multimedia presentation using PowerPoint. Students usually attract special attention to topics related to their native culture and traditions, as well as the culture of the countries of the language being studied, for example, "Customs and traditions of Great Britain", "Uzbekistan is my native republic", "All about the English language", "The history of Australia", "Famous people of America", etc.

Interactive methods can be used not only in classroom lessons, but also as part of extracurricular work. The leaders of the circle, together with students, conduct many open performances using elements of innovative, interactive technologies and methods. Open final lesson on the topic "Travel with us." "What a wonderful world!" was an exciting journey, a virtual journey thanks to the use of modern interactive learning technologies. The presentation included several important stages related to the topic "Travelling": ordering and purchasing tickets, booking a hotel room, visiting the airport and talking with employees, going through customs control, checking into a hotel, etc. During the open lesson, multimedia material was widely used to maximum approximation to the real communication situation. Thus, dialogues at the airport, hotel, and airplane were accompanied by video and audio sketches demonstrating the premises, staff, and services provided to clients. To control listening comprehension, a test with interactive content was used; control of speech knowledge, skills and abilities was carried out during the role-playing game.

I would like to say a few more words about one more type of interactive activity - a performance. Preparing for such an event requires great emotional and intellectual expenditure, but this makes its effect incomparably higher than the effect of any other interactive activity. As an example, we can mention the performance of the play "The

Hysterical History of the Trojan War” that took place in the branch. This performance is a fascinating tragicomedy by D. M. Larson, based on the works of Homer. The performance allowed the participants to revive their English, get into the atmosphere of antiquity, and gain acting skills. Such an event can be called a master class in interactive communication between students. Great desire, friendly attitude, many hours of work and rehearsals, the use of innovative interactive technologies and methods make it possible to overcome the psychological constriction of students, remove the language barrier, and teach students to emotionally express their thoughts in English.

CONCLUSION

Thus, the use of interactive teaching methods in English classes allows the student to be an active participant in the process, to form and develop cognitive activity.

REFERENCES

1. Anufriev B. F. Modern interactive methods of training economists and managers // Materials of the All-Russian interdisciplinary conference “Technologies for individualization of training at a university, December 27, 2017”. M.: Modern Humanitarian Academy, 2017. pp. 25-31.
2. Gulaya T. M. Innovative technologies in teaching and learning English // Philological Sciences. Questions of theory and practice. Tambov: Certificate, 2015. No. 1. Part 2. P. 72-74.
3. Zagvyazinsky V.I. Theory of learning: modern interpretation: textbook for universities. 3rd ed., rev. M.: Academy, 2016. 192 p.
4. Stepanova S. N. Application of information and educational technologies in teaching foreign languages to students of non-linguistic universities // Philological Sciences. Questions of theory and practice. Tambov: Certificate, 2014. No. 9. Part 2. P. 156-159.

POETONIMLARNING AYRIM LINGVOPOETIK JIHATLARI SHARHI

Almardanova Zebo Xamzayevna

QMII akademik litsey o'qituvchisi

Ubaydullayeva Orzigul Abdukhakimovna

Qarshi davlat Universitet magistranti

QMII akademik litsey o'qituvchisi

Khudoykulova Zilola ILHomovna

QMII akademik litsey o'qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada poetonimlarning ayrim xossalari tahlil qilinib, ulardan badiiy matnda obrazli foydalanish imkoniyati ochib beriladi.

Kalit soʻzlar: poetonim, antroponimlar, obraz, obrazlilik, metonimiya, metafora, muallif poetonimi, real nomlar.

KIRISH

Ma'lum bir ma'no tashuvchi onomastik birliklar maxsus nominativ vazifa bajarish bilan birga kontekst talabi bilan ekspressiv vazifa ham bajarib, lingvopoetik ahamiyatga ega bo'lishi mumkin.

ADABIYOTLAR SHARHI

Y.A.Karpenko 1984 yilda Leypsigda bo'lib o'tgan Xalqaro Onomastika Kongressida o'zining umummilliy til va badiiy adabiyotdagi atoqli otlarning o'ziga xos xususiyatlari haqida mutaxassislarga juda qisqa, besh xil mulohaza bayon qilingan bir sahifadan iborat fikrlarini taqdim etadi. Bu tezislarda poetonimlar ilk bor alohida masala sifatida ilmiy munozaraga kiritilgan edi.

Birinchi mulohaza: poetik onimiyaning ikkilamchi tabiati bilan bog'liq bo'lib, u umumxalq onomastika fonida paydo bo'lgan va unga suyanadigan "maqsadning sub'ektiv in'ikosi", "yozuvchi tomonidan umumtil onomastik me'yorlari bilan bajariladigan "o'yin"dir.

Ikkinchi mulohaza: Poetik onomastikaning asosiy xususiyati shundaki, uni muallifning o'zi tanlaydi yoki yaratadi, xalq onomastikasi esa tarixiy jihatdan qat'iy belgilanadi. Badiiy nomning obraz (tashuvchi), obrazli tizim, badiiy tushuncha, janr va uslub bilan bog'lanishi sezilarli darajada tor bo'lsa-da, onomastikaning sub'ektiv asosidan chetlashmaydi.

Uchinchi mulohaza: Badiiy onomastikaning vazifalari oddiy nomlarning funksiyalaridan sezilarli darajada farq qiladi. Bu yerda differensiallik emas, uslubiy vazifa yetakchi bo'lib, u axborot-uslubiy (konseptual ma'noga ega) va emotsional-uslubiy (ma'no konseptual emas) vazifa sifatida namoyon bo'ladi.

To'rtinchi qoidada "tilga mansub bo'lgan umummilliy, haqiqiy onomastikadan farqli o'laroq, poetik onomastika nutqiy birlikdir."

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Poetik onimiya **beshinch**i xususiyati sifatida **badiiy asar** sarlavhasini nazarda tutadi. Sarlavhani poetonim sifatida ko'rib chiqishga imkon beradigan ushbu qoida, bir tomondan, poetik va onomastik tadqiqotlar uchun yangi ufqlarni ochdi, boshqa tomondan, u poetonimologiyaning mutlaqo yangi va rivojlanmagan sohasiga tegishli edi.

Olimning poetik onomastikaning asosiy muammosi borasidagi tadqiqotlari asosida izlanishlar olib borgan V.M.Kalinkin shunday xulosaga keladi: "Y.A.Karpenkoning g'oyalarini ishlab chiqayotib, "poetik onomastikaning predmeti asl nomlar emas, balki ularning o'ziga xos o'zgarishi - poetonimlar" ekanligiga amin bo'ldim. Shu bilan birga, poetonimlarning eng muhim xususiyati shundaki, ular real emas, balki muallifning ijodiy ongi va (asar matni orqali) o'quvchi ongida idrok etiladi va ideal tasvirlarda mavjudlikni bildiradi."

"Poetik nom (poetonim) badiiy asarlar tilida nominativ vazifadan tashqari xarakterlovchi, uslubiy va g'oyaviy vazifalarga ham ega bo'lgan nomdir". N.V.Podolskayaning "Slovar russkoy onomasticheskoy terminologii" lug'ati 1978 yildagi nashrida ushbu ta'rif berilmagan. Demak, poetonim atamasi nisbatan keyinroq yangi paydo bo'lgan termin sifatida lug'atning keyingi to'ldirilgan nashriga kiritilgan. Badiiy matndagi poetonim tegishli nomlarning barcha toifalarini umumlashtiruvchi universal atama hisoblansa, onimlar turiga ko'ra, poetik antoponim (antropopoeonim), poetik toponim (toponopoeonim), poetik zoonim (zoopoeonim) kabi atamalarni qo'llash mumkin.

Poetik antroponimlar. Tilning ijtimoiy hodisa ekanligi onomastikada, jumladan, antroponimikada aniq ko'rinadi. Ismlarning yuzaga kelishi ijtimoiy hodisadir. Ismlarning ijtimoiy hodisa ekanligi ismlarni tanlash motivida, shuningdek, ismlarning o'ziga turli ijtimoiy, etnografik, diniy ma'nolar yuklanishida ham ko'rinadi.

Badiiy asarning tarixiylik nuqtai nazaridan tanlangan mavzusiga ko'ra, tarixiy shaxs yoki to'qima obraz nomi masalasi ko'ndalang qo'yiladi. Bu borada V.A.Nikonov quyidagicha fikr bildiradi: "Personaj nomi badiiy obraz yaratuvchi vositalardan biri bo'lib, u personajning ijtimoiy mansubligini tavsiflashi, milliy va mahalliy koloritni ifodalashi mumkin, agar asarda o'tmishda sodir bo'lgan voqelik tasvirlangan bo'lsa, tarixiy shaxslar ismi yordamida tarixiy haqiqat qayta yaratiladi (agar haqiqatga zid ravishda nom tanlangan bo'lsa, u to'la tiklanmay qoladi)" O'zbek tilshunosligida ham badiiy matn lingvopoetikasiga oid ishlarda personaj nomi

badiiyati masalasi ilgaridan o'rganilib kelingan bo'lsa-da, "poetonimlar – onomastik birlik" tamoyili asosida tadqiq qilish endigina shakllanib kelmoqda.

XULOSA VA MUNOZARA

Mazkur sohaning yetuk mutaxassislari e'tirof etganlaridek, nominatsiya tamoyillari davriy xarakterga ega bo'lib, o'zgarib turadi. Aholining turmush tarzi, madaniyati, tafakkur olami nominatsiya tamoyillarini belgilaydi. Shunday ekan,

onomastik birliklar tizimi ham muayyan davrdagi ijtimoiy hodisalar ta'sirida o'zgarishlarga uchraydi, zamonaviy talqinlar negizida o'zining yangi qatlamini shakllantiradi va shunga muvofiq tarzda yangicha mezon va tamoyillar ham vujudga keladi.

ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1. Begmatov E., Do'simov 3., Nafasov T., Qoraev S. O'zbek nomshunosligi: tadqiq yo'nalishi va usullari // Xiva, 1991. 1-son.
2. Kenjaeva S. O'zbek tili antroponimlarining nominatsion-motivatsion asoslari va tavsifi: fil.fan.bo'yicha (PhD) diss. avtoref. Qarshi, 2019.
3. Muqimova Z.R. O'tkir Hoshimov asarlarida poetonimlar olami // Buxoro davlat universiteti Ilmiy axboroti 2019/2(74). – B.114-119
4. Yuldashev O. Gemonimlar onomastik birlik sifatida // “Filologiyaning dolzarb masalalari” respublika ilmiy-uslubiy anjumani materiallari to'plami. 1-kitob, Qo'qon, 2020.

NEMIS VA O'ZBEK TILLARIDA BILVOSITA NUTQNING SINTAKTIK VA SEMANTIK XUSUSIYATLARI

Almardanova Zebo Xamzayevna

QMII akademik litsey o'qituvchisi

Nazarova Shoxida Ismatovna

Suyunov Bekzod Hasan o'g'li

Annotatsiya. Mazkur maqola tilning grammatik vositalaridan biri bo'lmish ot so'z turkumining tavsifiga bag'ishlangan. Ot so'z turkumining ifoda doirasini kengaytirish vositasi sifatidagi ahamiyati tufayli turli tillarda ko'plab tadqiqotlar mavzusi hisoblanadi. Nemis tilining materialida ot guruhi ko'plab germanistlarning asarlarida keng qamrovdan o'tirilgan. Muallif tomonidan ot so'z birikmalarini tadqiq qilish doirasida olingan natijalar mazkur masalaga sintaksis va semantikaning o'zaro ta'siri bo'yicha ko'plab savollarni qo'yish va aniqlashtirish imkonini beradi.

Kalit so'zlar: ot so'z birikmasi, ot guruhi, substantivlashtirish, ot valentligi, sintaktik polisemiya va omonimiya, sintaktik konstruktsiya, nominal genitiv guruhlar.

KIRISH

Tilda ba'zi so'zlarning u yoki bu morfologik va grammatik tuzilishi nima uchun mavjudligini tushuntirish inson uchun ba'zan qiyin. Bu til rivojlanishining uzoq davom etgan jarayoni natijasidir. Har bir inson ikkilanmasdan so'zlardan foydalanadi va ularni jummalarga birlashtiradi. Tabiiyki, bu ko'pchilik uchun o'z ona tilida muloqot qilishda sodir bo'ladi. Xuddi shunday, kishi o'z nutqida turli iboralarni qo'llaydi. Ular barqaror va erkin, fe'lli va otli bo'lishi mumkin. Har holda, ular har qanday tilning ajralmas qismidir. Shuning uchun biz tilning grammatik tuzilishining jihatlaridan biri - nemis tilida turg'un bo'lgan ot so'z birikmalarini o'rganishga qaror qildik.

ADABIYOTLAR SHARHI

Zamonaviy tilshunoslikda so'z birikmasini alohida sintaktik birlik sifatida tadqiq qilishga katta e'tibor qaratilmoqda. So'z birikmasi haqida yirik tilshunos olimlar, taniqli germanistlar o'zlarining ilmiy izlanishlarida yoritishgan. Nemis tilida so'z birikmasini tadqiq qilish bo'yicha ko'plab doktorlik dissertatsiyalari yozilgan. Ot va fe'lli so'z birikmalarining alohida struktur turlarini tadqiq qilishga bag'ishlangan L.V.Shishkovaning "Именные синтаксические группы с сочинительной связью в современном немецком языке" [3] va N.I.Filichevaning "Синтаксис глагольных словосочетаний современного немецкого языка" [2] mavzularidagi doktorlik dissertatsiyalari, shuningdek, turli funksional uslubdagi matnlardagi ot so'z birikmalarining tuzilishi va ko'lami tavsifiga bag'ishlangan ko'plab nomzodlik dissertatsiyalari shular jumlasidandir.

Yuqorida keltirilgan muammolarni ot soʻz birikmali materiallar boʻyicha shakllantirish maqsadga muvofiqdir, chunki ular sintagmatikaning ushbu sohasida soʻnggi oʻn yilliklardagi nemis adabiy tilidagi belgilovchi tendensiyalardan biri - substantivlashtirish tendensiyasi bilan birlashadi[4; 161-b.]. Bu tendensiya nemis tili jumllarida substantiv guruhlar ulushining ortishidan dalolat beradi.

Ot guruhi jumla doirasini kengaytirish vositasi sifatidagi ahamiyati tufayli turli tillarda koʻplab tadqiqotlar mavzusi hisoblanadi. Nemis tilining materialida ot guruhi V.G.Admoni [1] va uning shogirdlari asarlarida keng qamrovda yoritilgan. Ot guruhining tuzilishini nemis germanistlari [4] ham oʻrgangan.

Nemis olimlari E.Zommerfeldt va V.Bondsiolarning ot soʻz birikmalarini oʻrganishga bagʻishlangan ilmiy tadqiqotlari, shuningdek, bir qator maqolalarini soʻz birikmalarini oʻrganishdagi asosiy yoʻnalishlar sifatida qarash muhimdir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Olib borilgan izlanishlar ot soʻz birikmasini bir-biri bilan uzviy bogʻlangan va boshida ot soʻz turkumi keladigan elementlarni oʻz ichiga olgan soʻzlar guruhi sifatida tushunish kerakligini koʻrsatadi.

Dürscheid [3; 68-b.] ot guruhini ot va olmoshlarni biriktiradigan umumiyatama degan fikrni ilgari suradi.

Soʻz birikmasi yoki ot soʻz birikmasi nima degan savolga kelsak, Zommerfeldt va Shtarke quyidagilarni taʼkidlaydi: “Unter einer Wortgruppe verstehen wir also die semantische Vereinigung von mindestens zwei Autosemantika, zwischen denen die syntaktische Beziehung der Subordination besteht” [2; 185-b.]. Bundan koʻrinadiki, soʻz birikmasi - bu oʻrtasida tobeʼlikning sintaktik munosabati mavjud boʻlgan kamida ikki mustaqil soʻzning semantik birikishidir.

Ularning fikricha *der Kranke* - bu bitta soʻz, *ein interessantes Spiel* esa - soʻz birikmasi [4; 39-b.]. Shuni qayd etish kerakki, bu qarashning lingvistik maqsadlar uchun qanchalik samarali ekanligi umuman aniq emas. Ot soʻz birikmasiga nisbatan esa faqat aniqlovchili ot soʻz birikmasi - soʻz birikmasiboʻlishi mumkin. Shu paytgacha keltirilgan adabiyotlarda ot soʻz birikmasi aniqlovchili yoki aniqlovchisiz soʻz birikmasi, yoki bitta otdan tarkib topishi mumkinligi toʻgʻrisida fikrlar mavjud: *der alte Mann, der Mann, Oliver* - bu konstruksiyalarning barchasi ot soʻz birikmasi deyiladi.

Ot soʻz birikmasida kamida ot soʻz turkumi mavjud boʻladi. Engel bu borada shunday deydi: “Har bir ot soʻz birikmasi oʻz oʻzagi sifatida otni va uning yoʻldoshi sifatida aniqlovchini oʻz ichiga oladi” [5; 603- b.].

Nemis tilidagi ot soʻz birikmasining strukturaviy xususiyatlarini tavsiflash 20 asrning 80 yillaridan boshlab generativ grammatika gʻoyalari taʼsirida amalga oshirildi va yangi yondashuvlar bilan tavsiflanadi.

Nemis tilida ot soʻz birikmalarining tuzilishini tavsiflashda assimetriya kabi tarkibiy xususiyatni hisobga olgan holda ularga katta eʼtibor beriladi.

Tilshunos olimlarning diqqatini tortadigan va ot so‘z birikmasi bilan bog‘liq bo‘lgan muammolar qatorida biz yuqorida tilga olgan sintaksis va semantikaning o‘zaro ta‘siri, otning valentligi, sintaktik polisemiya va omonimiya kabilar qatori, sintaktik konstruksiyalarning sinxroniyada va diaxroniyada ishlash xususiyatlari kabi masalalar ham borligini ta‘kidlash lozim.

XULOSA VA MUNOZARA

Xulosa qilib aytganda, ot so‘z birikmasi - bu tobe‘likning sintaktik munosabati mavjud bo‘lgan, kamida ikki mustaqil so‘zning semantik birikishidan tarkib topgan til hodisasidir. Ot so‘z birikmasi aniqlovchili yoki aniqlovchisiz so‘z birikmasi, yoki bitta otdan tarkib topishi mumkin. Ot so‘z birikmasi tarkibida albatta ot so‘z turkumi mavjud bo‘ladi. Har bir ot so‘z birikmasi o‘z o‘zagi sifatida otni va uning yo‘ldoshi sifatida aniqlovchini o‘z ichiga oladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Dudenband 4. Die Grammatik: Unentbehrlich für richtiges Deutsch. Hg. von der Dudenredaktion. Mannheim: Dudenverlag, 2019.
2. Lohde M. Wortbildung des modernen Deutschen. Ein her - und Übungsbuch. Bad Schönborn: Narr, 2016.
3. Wellmann H. Die Wortbildung. In: Duden (Bd.4). Grammatik der deutschen Gegenwartssprache. Mannheim, Leipzig, Wien, Zürich: Duden, 2015, p. 399.
4. Herberg D., Kinne M., Steffens D. Neuer Wortschatz. Neologismen der 90er Jahre im Deutschen
5. // Schriften des Instituts für Deutsche Sprache. V. 11, 2014.

СИНТАГМАТИЧЕСКИЕ ИННОВАЦИИ В СМИ

Алмарданова Зебо Хамзаевна

*Преподаватель академического лица Каршинского
инженерно-экономического института*

Джураева Гульбахор Эшмуратовна

*Преподаватель академического лица Каршинского
инженерно-экономического института*

Кадырова Гулора Худайназаровна

Магистрант Каршинского государственного университета

Преподаватель академического лица

Каршинского инженерно-экономического института

Аннотация. Сегодня инновационные изменения в СМИ происходят очень быстро. Современному журналисту приходится работать в нескольких форматах, используя сразу несколько способов доставки контента до потребителя. Время инноваций, несомненно, открывает множество возможностей.

Ключевые слова: СМИ, инновация, метод, возможность.

ВВЕДЕНИЕ

Инновационными направлениями развития медиаорганизаций являются:

Переход на комплексный ньюсрум, который объединяет принт, онлайн, радио и ТВ в один open space, который производит контент для всех платформ. Журналисты должны работать не на тот или иной отдел, а на всю группу медиа холдинга и фокусироваться на производстве контента, интересного сразу всем потребителям. В результате при том же количестве сотрудников мультимедийная редакция будет производить больше контента и распространять его через большее число каналов.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ

Активный переход пользователей на чтение новостей на мобильных устройствах. Преимущество цифровых изданий в том, что они позволяют собирать все необходимую информацию о подписчиках: что они читают, когда они читают, какой вид рекламы их интересует, что позволит увеличить доход. Создаются бизнес-модели, когда оперативные мобильные новости дополняются контекстом, комментариями и анализом в печатной продукции и в определенной степени в Интернете. Печатное издание будет полностью основываться на веб-версии, а не наоборот. Команда, занимающаяся печатным изданием, будет интегрироваться в общую веб-команду. Рекламные форматы станут общими для всех изданий. Исследователи уверены, что через пять лет доступ через смартфоны к новостным ресурсам будет преобладать над другими устройствами

of vivid imagery-evoking metaphors in complex memory tasks. For example, cognitive metaphor awareness offers a more robust and comprehensive tool for teaching/learning figurative expressions. A study of the use of metaphor in teaching vocabulary showed that the introduction of metaphor in teaching makes memorizing some of the meanings of the word much easier. Nowadays, another interesting method of gathering participants' beliefs and attitudes through metaphor analysis is attracting more and more researchers. One way to do this is to ask people to complete statements with metaphors as they see fit. Beliefs and beliefs are central constructs in every discipline concerned with human behaviour and learning[6]. Since the 1980s, the beliefs of second foreign language learners and teachers have become an important area of research. Research in the field of teacher thinking shows that teachers' teaching behaviour is governed by cognitive psychological processes that create theories, beliefs, metaphors, and mental models. Bulgur and Gillian (1995) argue that part of being a teacher involves adopting metaphors that define the teaching experience.

Metaphors are also an important part of teachers' personal practical knowledge and shape their understanding of their role as teachers. For example, Pagan argued that metaphor can be a tool for teachers to verbalize their "professional identity." Swales asked 12 older female primary school students in Dubai to use visual metaphors to identify their beliefs. The study shows that no machine, social communication and computer metaphors were used by them. On the contrary, it turned out that in the metaphors used by the girls, natural elements such as land, rural life and family are firmly rooted. This is undoubtedly closely related to the political and social opinions of women in third world countries. The points presented conclude that metaphor is seen as a way of thinking or conceptualizing the world. From a cognitive point of view, metaphor acts as a "bridge" for people to better understand and understand new, abstract, and ill-defined concepts. Hence the metaphor considered as an analytical tool in many discourses. This approach straddles the cognitive and discursive dimensions of metaphor based on the assumption that there is no difference. Accordingly, the main efforts of researchers are aimed at determining the cognitive and discursive properties of metaphor. Current research suggests that a cognitive approach to metaphor analysis. is of primary importance in metaphorology, however, many aspects of cognitive theory are still not thoroughly studied. The ideas put forward by J.Lakoff and M.Johnson spread widely throughout the world and became the basis for many researches. At the same time, this theory is used in many scientific schools and directions, causing the development of new methods and methods for the next stages.

REFERENCES

1. <https://repository.tma.uz/xmlui/bitstream/handle/1/5622/Shahnoza%20.pdf?sequence=1&isAllowed=y>
1. <https://repository.tma.uz/xmlui/handle/1/5622>
2. <https://uz.m.wiktionary.org/wiki/metafora>
3. <https://zenodo.org/record/6621470/files/ZDIF1705.pdf>

“MA’NAVIYAT SEKTORI” DA YOSHLAR BILAN ISHLASH, MA’NAVIY VA MA’RIFIY ISHLARNI TASHKIL ETISH VA ULARNI AMALGA OSHIRISH FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH

Ravshanqulova Risolat Abdujabborovna

DTPI, Pedagogika fakulteti yoshlar bilan ishlash va ma’naviy -ma’rifiy ishlar bo‘yicha dekan o‘rinbosari

Annotatsiya: Institutimiz miqyosida “ Ma’naviyat sektori ”boshchiligida talabalar orasida kitobxonlik kechalari, sportning voleybol, futbol, basketbol, shaxma, stol tenisi kabi turlari orasida qizg‘izn musobaqalar tashkil etilmoqda. “Ma’naviyat sektori” va institute jamosi tomonidan esdalik sovg‘alar taqdim etilmoqda. Prezidentimiz rahbarligida o‘tkazilgan Respublika Ma’naviyat va ma’rifat Kengashining yig‘ilishida 9 ta yo‘nalish bo‘yicha muhim fikrlar bildirildi va tashabbuslar ilgari surildi. Xususan, davlatimiz rahbari o‘z so‘zida so‘nggi yillarda ma’naviy-ma’rifiy sohalarda amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida to‘xtalib, 2016 yilga nisbatan ijtimoiy sohalar rivojiga ajratilgan mablag‘larning hajmi 5,6 barobarga oshganini ta’kidlab o‘tdi. Prezidentimizning kuyinchaklik bilan ma’naviy-ma’rifiy ishlarga e’tibor qaratishi biz soha vakillarini ruhlantirdi. Chunki bugun yurtimizda Yangi O‘zbekistonni barpo etishda barcha sohalarda yangicha tashabbuslar ilgari surilmoqda.

Kalit so‘zlar: “Bahor” , Kengash , “Orol madaniyati” , Sektor , Millat.

Ma’naviyat sohasidagi amalga oshirilayotgan ezgu ishlar ushbu tashabbuslarga qanot bo‘lmoqda. Hayot shiddat bilan o‘tib borayotgan bugungi globallashuv sharoitida ma’naviy tarbiyaning o‘rni beqiyos. Chunki ma’naviyatli, ma’rifatli insonlar millatni sevadi, uni asraydi. Ilmsiz, bilimsiz va tafakkursiz katta marralarni ko‘zlab bo‘lmaydi. Albatta, yuksak marralarga esa ma’rifat bilan, ma’naviyat bilan, kitobxonlik bilan erishiladi. Ma’naviy tarbiya to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilmagan joyida ma’rifat bo‘lmaydi, ma’naviyat oqsa-sa, ilmiy taraqqiyot ham oqsaydi. Bejizga Prezidentimizning Surxondaryo viloyatiga tashrifi doirasida bildirgan taklifi asosida joylardagi Ma’naviyat va ma’rifat Kengashlarining ishchi tuzilmasi sifatida hududlardagi 4 ta sektorga qo‘shimcha 5-sektor, ya’ni “Ma’naviyat sektori” tashkil qilinmayapti. Chunki bu sektor oila, mahalla, ta’lim tashkilotlarida ma’naviy tarbiyaning uzviylikini ta’minlash, ijtimoiy-ma’naviy muhit barqarorligini mustahkamlashga qaratilgan doimiy monitoring tizimini yaratadi Ma’naviyat sektori – oliy ta’lim tizimida institut rektori shefeligida tashkillashtiriladi va tayinlangan mas’illar tomonidan yuritiladi. Sektor faoliyatini muvofiqlashtirish – Yoshlar masalalari va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektori zimmasiga yuklatiladi. Sektor a’zolari – Rektorning yoshlar masalalari va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektori, yoshlar bilan ishlash, ma’naviyat

va ma'rifat bo'limi boshliqlari, yoshlar ittifoqi boshlang'ich tashkilot yetakchilari, tyutorlar, fakultet dekanlari, dekanlarning ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinbosarlari, kafedra mudirlari, rektorning yoshlar hamda xotin-qizlar masalalari bo'yicha maslahatchilari, magistratura bo'lim boshliqlari, axborot-resurs markazi direktorlari, talabalar turar joylari direksiyasi, psixologlari hisoblanadi. Institutimizda Sektorning maqsadi – “Yangi kuch, yangi harakat” harakatlar dasturi asosida talaba-yoshlarda yoshiga mos tayanch ma'naviy-axloqiy fazilat (kompetensiya)lar — Vatanga sadoqat, tadbirkorlik, irodalilik, mafkuraviy immunitet, mehr-oqibatlilik, mas'uliyatlilik, tolerantlik, huquqiy madaniyat, innovatsion fikrlash, mehnatsevarlikni shakllantirish. [1].

Surxondaryo viloyat Ma'naviyat va ma'rifat kengashining kengaytirilgan yig'ilishi bo'lib o'tdi. Kengash a'zolari, mahalliy davlat va jamoat tashkilotlari rahbarlari, nuroniylar va ommaviy axborot vositalari vakillari ishtirok etgan yig'ilishda viloyatda “Ma'naviyat sektori”ni tashkil etish bilan bog'liq masalalar ko'rib chiqildi. Prezidentimizning joriy yil 16-17 noyabr kunlari viloyatga tashrifi chog'ida vohada “Ma'naviyat sektori”ni tashkil etish bo'yicha “Surxondaryo tajribasi”ni yaratish vazifasi belgilab berilgan edi. Shunga muvofiq kengaytirilgan yig'ilishda sektor faoliyatini yo'lga qo'yish va uning asosiy vazifalari xususida fikr almashildi. Surxondaryo viloyati hokimi – viloyat Ma'naviyat va ma'rifat kengashi raisi Ulug'bek Qosimov, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi rahbari, senator Minhojiddin Hojimatov shu haqda atroflicha ma'lumot berdi. Viloyatda yangi tashkil etilayotgan “Ma'naviyat sektori” ayni paytda faoliyat yuritayotgan to'rtta sektorga qo'shimcha alohida ijro hokimiyatining kollegial organi, viloyat, tuman va shahar Kengashlarining ishchi tuzilmasi sifatida tashkil etilib, barcha hududlarda ish yuritadi. Kengaytirilgan yig'ilishda beshinchi sektor ishini keng yo'lga qo'yishda amalga oshiriladigan muhim vazifalar yuzasidan tegishli chora-tadbirlar belgilanmoqda.

Institutimiz Ma'naviyat sektori rahbarining asosiy vazifalari:

Sektor faoliyatini nazorat qilish;

jamoada sog'lom ma'naviy muhitni yaratish;

sektor faoliyatida obyektivlik, oshkorlik va shaffoflikni ta'minlash uchun sharoit yaratish;

sektorning yillik ish rejasini tasdiqlash;

sektor a'zolari va hamkor tashkilotlar bilan birgalikda har oyda tanqidiy-tahliliy ruhda yig'ilishlar o'tkazish;

sektor faoliyatini muvofiqlashtirishga mas'ul yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektori hamda sektor a'zolarining hisobotlarini tinglash;

sektor a'zolari tomonidan amalga oshirilayotgan ishlar monitoringini yuritish;

faol ish olib borayotgan sektor a'zolarini moddiy-ma'naviy rag'batlantirib borish;

ota-onalar, mahalla va boshqa jamoat tashkilotlari bilan o‘quv-tarbiyaviy va ma’naviy-ma’rifiy ishlarni takomillashtirish buyicha hamkorlikni tashkil qilish;

ta’lim muassasasi hududida talabalarni yuksak vatanparvarlik, mardlik, shijoat, qat’iyat, donolik, jasorat, katayu kichikka hurmat, kitobxonlikka do‘stlik ruhida tarbiyalashga qaratilgan ma’naviy-ma’rifiy mazmundagi shiorlar, bannerlar, stendlar, milliy siymolar va boshqa tasviriy-targ‘ibot vositalarini o‘rnatish;

ta’lim muassasasi hududida “Yashil kelajak” loyahasini yo‘lga qo‘yish va obodonlashtirish ishlarini tashkil qilish. [2].

Avvalo, ma’naviyat va madaniyat sohasi uchun metodik asos bo‘lib xizmat qiladigan milliy g‘oyamizni rivojlantirish bo‘yicha alohida dasturiy hujjat ishlab chiqish lozimligi ta’kidlandi. Ba’zi guruhlar orasida diniy qarashlarni Konstitutsiya va qonunlarimizga qarshi qo‘yish, dunyoviy qadriyatlarni harom deb bilish holatlari afsus bilan qayd etildi. Prezident bu o‘rinda Ibrat domlaning “Ulam o g‘ayrat etkanda millat, albatta, isloh topur”, degan hikmatli so‘zlarini yodga oldi. Ziyolilar, nuroniylar, haj va umraga borib kelgan yurtdoshlarimiz ma’naviyat targ‘ibotchisi bo‘lishi, odamlarni yaxshilikka boshlashi kerakligi aytiladi. Ta’lim tizimiga qaratilayotgan e’tibor izchil davom ettiriladi. Bu borada ham tenglik ta’minlanishi, xususan, qiz bolalarning o‘qishi va kasb-hunar egallashi jamiyat rivojida muhim ekani alohida ta’kidlandi [3].

Ikkinchidan, madaniy-ma’rifiy sohadagi ishlarda hokimlarning mas’uliyati oshiriladi. Tuman va shaharlarda Ma’naviyat va ma’rifat maskanlari ishga tushiriladi. Bugun ma’naviyat boshqa sohalardan o‘n qadam oldinda yurishi, ma’naviyat yangi kuchga, yangi harakatga aylanishi kerak, – dedi Prezident. Shu maqsadda, Surxondaryo viloyatida bildirilgan taklif asosida hududlardagi 4 ta sektorga qo‘shimcha ravishda ma’naviyat sektori tashkil etilishi ma’lum qilindi. Ular joylardagi Ma’naviyat va ma’rifat kengashlarining ishchi tuzilmasi sifatida faoliyat ko‘rsatmoqda.

Uchinchidan, teatr san’atini rivojlantirish bo‘yicha dastur ishlab chiqiladi. Unda eng yaxshi pesalar uchun ijodiy buyurtma berish, ijodiy va yordamchi xodimlarning chet el teatrlarida mahoratini oshirish, yosh rejissyorlarni qo‘llab-quvvatlash uchun Mannon Uyg‘ur nomidagi mukofot ta’sis etish kabilar nazarda tutiladi. Korxonalar va muassasalarda o‘yning bir kuni “Teatr kuni” deb belgilanib, xodimlarning teatrlarga borishi yo‘lga qo‘yilmoqda.

To‘rtinchidan, aholining bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazishda 837 ta madaniyat markazining faoliyati juda muhim. Ularda 4 mingga yaqin to‘garak faoliyat ko‘rsatmoqda, 120 mingdan ortiq yoshlar shug‘ullanmoqda. Lekin ayrim markazlar o‘z binosiga ega emas, jami 8 mingta musiqa anjomiga ehtiyoj bor. Bu borada hokimlarga ko‘rsatmalar berildi. Shuningdek, kelgusi yildan har bir tumanda sahnali zal, kutubxona, kinozal va to‘garak xonalari bo‘lgan bittadan madaniyat markazi faoliyati yo‘lga qo‘yiladi. Joylardagi 600 dan ziyod badiiy havaskorlik jamoalarining moddiy-texnik

bazasini yaxshilash bo'yicha dastur qabul qilinib, bunga 100 milliard so'm yo'naltirilmoqda.

Beshinchidan, maqom va baxshichilik san'atini ilmiy asosda o'rganish va rivojlantirish kuchaytiriladi. Hozirgacha 120 ta maqom, baxshichilik dostonlari, xalq kuyi va qo'shiqlari "oltin fond"ga yozib olindi. Kuni kecha O'zbekiston Prezidentining nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish, ilmiy o'rganish va targ'ib etishga doir qarori imzolandi. Unda, jumladan, Madaniyatshunoslik va nomoddiy madaniy meros institutini tashkil etish, qadim musiqa asarlarini tadqiq qilish, mamlakatimiz fondlarida saqlanayotgan 3 mingdan ziyod doston, maqom va folklor asarlarini zamonaviy formatga o'tkazish ko'zda tutilgan. Yana bir muhim yangilik – maqom, katta ashula, baxshichilik, atlas va adras, kulolchilik va zargarlik kabi an'analarni davom ettiradigan maktablar yaratilmoqda.

Oltinchidan, musiqa va raqs san'ati rivoji qo'llab-quvvatlanadi. Jumladan, "Bahor" raqs ansambli ilgari Filarmoniya joylashgan mashhur san'at saroyida faoliyat yuritadi. Taniqli ashula va raqs ansambllarining xorijga gastrol safarlari ko'paytiriladi. Musiqa va raqs san'ati masalalarini ilmiy o'rganish, sohada ilmiy kadrlarni ko'paytirish maqsadida ilmiy tadqiqotlar uchun grantlar joriy qilinadi. Shuningdek, Toshkent davlat sirki binosi ta'mirdan chiqarilmoqda. Talaba-yoshlarni tarbiyalash va o'qitish jarayonida ruhiy, jismoniy (somatik) va ijtimoiy farovonligini muhofaza qilish;

talabalar rivojlanishiga to'sqinlik qilayotgan omillarni aniqlash va turli ko'rinishdagi psixologik yordam (psixokorreksiya, reabilitatsiya va maslahat) berish bo'yicha tadbirlarni amalga oshirish;

talabalar, ota-onalar (ularning o'rnini bosuvchi shaxslar), jamoaga aniq muammolarni hal qilishda yordam berish;

turli yo'nalish va maqsadlarda psixologik tashxis o'tkazish;

ruhiy, jismoniy va aqliy qobiliyat, moyillik, imkoniyat kabi sifatlarni aniqlash uchun testlar o'tkazish;

test natijalarini tahlil qilish va baholash;

talaba ruhiyatidagi salbiy o'zgarishlarni aniqlash va ularni bartaraf etishga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirish;

bu borada tegishli davlat idoralari bilan hamkorlikda ish olib borish;

talabalarning shaxsiy, aqliy va ijtimoiy rivojlanishini psixologik jihatdan kuzatib borish;

ta'lim-tarbiyadagi psixologik nuqsonlarni aniklash, ularning aqliy taraqqiyotida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan har qanday salbiy og'ishlarning oldini olish;

talabalar shaxsining individual yosh xususiyatlari, jinsini hisobga olib ta'lim faoliyatining rivojlantiruvchi va tuzatuvchi dasturlarini rejalashtirish va ishlab chiqishda ishtirok etish, ularda hayotiy va kasbga yo'nalish olishning turli vaziyatlariga moslashuvchanlikka tayyorgarlikni rivojlantirishga ko'maklashish;

iqtidorli talabalarni psixologik jihatdan qo‘llab-quvvatlash, ularning rivojlanishi va izlanishlariga ko‘maklashish; [4].

Yettinchidan, xalqaro maydonda o‘zbek madaniy diplomatiyasi kengaytiriladi. Kelgusi yili Toshkentda jahon kreativ iqtisodiyotiga bag‘ishlangan konferensiya, Nukusda esa “Orol madaniyati” xalqaro ilmiy anjumani o‘tkaziladi. Muzeylar faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha yetti yillik dastur qabul qilinadi. Tarix muzeyi hamda San’at muzeyining yangi binolari barpo etiladi. Temuriylar tarixi hamda Tabiat muzeylarining ekspozitsiyasi yangilanadi. Alisher Navoiy nomidagi Adabiyot muzeyi kapital ta’irlanadi. Bundan tashqari, muzeylarimizda, xususan, Islom sivilizatsiyasi markazida Birinchi va Ikkinchi Renessans, davlatchilik tarixi va buyuk allomalar faoliyati bo‘yicha yangi ekspozitsiyalar tashkil qilinadi. Fransiya bilan hamkorlikda Milliy restavratsiya markazi faoliyati yo‘lga qo‘yiladi. Muqaddas kitob – Usmon Qur’oni sahifalari konservatsiya qilinadi. Yurtimizning ko‘hna tarixiga bag‘ishlangan 18 ta arxeologiya yodgorligi ochiq osmon ostidagi muzeyga aylantiriladi. Samarqandda Sohibqiron Amir Temur bog‘lari qayta tiklanadi, “Buyuk ipak yo‘li” muzeyi barpo etilib, Bibixonim majmuasi restavratsiya qilinmoqda.

Sakkizinchidan, kino sohasi rivojlantiriladi. Bu borada “Tirik tarix” seriyasida Vatanimizning shonli o‘tmishiga bag‘ishlangan filmlar yaratish dasturi ishlab chiqiladi. Bunga xorijiy ijodkorlar, kinokompaniyalar hamda investorlar ham jalb etiladi. Shuningdek, bolalar uchun buyuk ajdodlarimizning ibratli hayot yo‘li haqida ko‘p qismli animatsion filmlar yaratish zarurligi ta’kidlandi. Kinoni iqtisodiyot bilan uyg‘un rivojlantirish maqsadida Buxoro, Samarqand va Toshkent viloyatlarida “erkin iqtisodiy kinohududlar” barpo etish vazifasi qo‘yildi. Milliy seriallar bo‘yicha mavjud tizimni tubdan isloh etish, ularni g‘oyaviy-badiiy va texnik jihatdan jozibali darajaga yetkazish zarurligi ta’kidlandi. Buning uchun IT-park kabi erkin iqtisodiy zona – “Cinema park” tashkil qilish tashabbusi ilgari surildi.

To‘qqizinchidan, tasviriy va amaliy san’at sohasini rivojlantirish bo‘yicha dastur qabul qilinadi. Jumladan, Markaziy ko‘rgazmalar zali rekonstruksiya qilinib, jihozlanadi. Badiiy fond hududida zamonaviy galereya binosi quriladi hamda 40 ta ijodiy ustaxonadan iborat Yosh rassomlar markazi tashkil etiladi. Xattotlik va miniatyura san’ati ta’limini amaliyot bilan bog‘lash maqsadida milliy usulda qog‘oz tayyorlash ustaxonasi tashkil etiladi. Sohada ta’lim sifatini yaxshilash, musiqa va san’at maktablari muallimlarining oyligini oshirish, ushbu maktablarning kommunal xarajatlarini byudjetdan qoplash bo‘yicha takliflar bildirilmoqda[5].

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Milliy axborot agentligi
2. Surxon tongi online
3. Oyina .uz
4. Uza.uz
5. Kun.uz

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING MATEMATIK SAVODXONLIGINI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI

Fatulloeva Munira Saloxitdinovna

*Buxoro shahar 30-umumta'lim maktabining
boshlang'ich sinf o'qituvchisi*

Annotatsiya. Maqolada bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining metodik tayyorgarligini takomillashtirishda xalqaro baholash dasturlaridan foydalanish imkoniyati ochib berilgan. TIMSS xalqaro baholash dasturlarini ta'lim jarayonida qo'llashda erishiladigan yutuqlar tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisi, xalqaro baholash dasturi, matn ustida ishlash, savodxonlik darajasi, PIRLS, TIMSS.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 5712-son Farmonida 2030-yilga kelib xalqaro baholash reytingida jahonning birinchi 30 ta ilg'or mamlakatlari qatoriga kirishiga erishish hamda xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish asosida o'quvchilarning o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholashga yo'naltirilgan ta'lim sifatini baholashning milliy tizimini yaratish vazifalari belgilangan [2]. Shuningdek, konsepsiya doirasida o'quvchilarning tanqidiy va ijodiy fikrlash, axborotni mustaqil izlash, tahlil qilish kompetensiyalari va malakalarining rivojlanishiga alohida urg'u berishni hisobga olgan holda, zamonaviy innovatsion iqtisodiyot talablariga javob beradigan umumta'lim dasturlari va yangi davlat ta'lim standartlarini joriy etish, o'quvchilarning bilim darajasini baholashda xalqaro PISA, TIMSS, PIRLS va boshqa dasturlarda doimiy ishtirok etish nazarda tutilgan.

– PIRLS (Progress in International Reading and Literacy Study) – boshlang'ich 4-sinf o'quvchilarining matn o'qish va tushunish darajasini baholash;

– TIMSS (Trends in International Mathematics and Science Study) – 4- va 8-sinf o'quvchilarining matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholash;

TIMSS bu — "Trends in International Mathematics and Science Study", ya'ni 4- va 8-sinf o'quvchilarining matematik va tabiiy-ilmiy yo'nalishlar bo'yicha ta'limdagi natijalarini xalqaro miqyosda baholaydigan tadqiqotdir.

TIMSS tadqiqot vositasi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- matematika va tabiiy fanlar sikli fanlaridan topshiriqlar (4- va 8-sinflar);
- ta'lim muassasalari rahbarlari uchun anketa (4- va 8-sinflar);

- o'qituvchilar uchun so'rovnoma (4- va 8-sinflar);
- Ota-onalar uchun so'rovnoma (4-sinf).

TIMSS testi to'rtta topshiriq blokidan iborat (ikkitasi matematikadan va ikkitasi tabiatshunoslik). 4-sinfda butun testni bajarish uchun tanaffus bilan 72 daqiqa ajratiladi (ikki qism 36 daqiqa). 8-sinfda butun testni bajarish uchun tanaffus bilan 90 daqiqa berildi (ikki 45 daqiqadan iborat qismlar).

TIMSS xalqaro tadqiqot vositalari to'plamiga quyidagilar kiradi:

- kognitiv va ma'lumotlar sohasiga tegishli testlar;
- anketalar (o'quvchilar, o'qituvchilar, ta'lim muassasasi ma'muriyati, ta'lim sohasidagi mutaxassislar (tadqiqot sifatini kuzatuvchilar uchun);
- uslubiy ta'minot (o'rganishni tashkil etish va o'tkazish bo'yicha milliy koordinatorlar uchun yo'riqnoma, namuna olish bo'yicha qo'llanma, maktab koordinatorlari uchun qo'llanma, test o'tkazish bo'yicha qo'llanma, bepul javoblar bilan topshiriqlarni tekshirish bo'yicha qo'llanma, ma'lumotlarni kiritish bo'yicha qo'llanma va boshqalar);
- dasturiy ta'minot (sinflar va o'quvchilarni tanlash uchun, ma'lumotlarni kiritish uchun).

Xalqaro testlar quyidagi tamoyillar asosida ishlab chiqiladi:

Jaxon ta'limida Lesley University olimi **Jennifer Anne Evans** matematika baholash tizimi haqida ilg'or fikrlarni ilgari surgan.

Tadqiqotchi baholash tizimini ikki o'lchovga bo'ladi: mazmunli va kognitiv. Uning fikricha matematikani o'rganib, mazmun o'lchovi vazifalarni bajarish uchun zarur bo'lgan matematik ko'nikmalar yoki tushunchalarga ishora qilish lozim (masalan, ko'paytirish, perimetr va boshqalar) [6; 32-33-b.].

Jennifer Anne Evans tadqiqot ishida mazmunli va kognitiv o'lchamdagi topshiriqlarni alohida ajratib ko'rsatgan (1-jadval).

1-jadval.

4-sinf matematika <u>mazmunli o'lchov</u>	4-sinf matematika <u>kognitiv o'lchov</u>
Raqaamlar (50%)	Bilish (40%)
Geometrik shakllar va o'lchovlar (35%)	Qo'llash (40%)
Ma'lumotlarni ko'rsatish (15%)	Mulohaza yuritish (20%)

O'qituvchilar o'quvchilarning o'quv faoliyati turlari (bilish, qo'llash, mulohaza yuritish) bo'yicha o'quv yutuqlarini baholashda o'tgan yillar davomida tadqiqotda ishlatilgan, biroq konfidensiallik rejimidan chiqqan topshiriqlarni didaktik material sifatida ta'lim jarayonida qo'llashi mumkin. Bu esa TIMSS xalqaro tadqiqotining o'quvchilarning o'quv yutuqlarini baholashning o'ziga xos yondashuvlarini tushinishni ta'minlaydi. Muhimi, matematika va tabiiy fanlardan savodxonlikni

baholash vositalari ta'lim texnologiyalari va o'qitish metodikasini takomillashtirishga imkon beradi.

Xalqaro baholash dasturlari bo'yicha xalqaro tadqiqotlarda O'zbekiston Respublikasining ishtirok etishiga tayyorgarlik ko'rish bo'yicha «Yo'l xaritasi»ning 13-bandida xalqaro tadqiqotlarda o'tgan yillarda foydalanilgan savollar mazmunini o'rganib chiqib, tahlil qilish belgilangan.

Georgia State University olimi Michael Nguyen-Quan TIMSS 2015: Influences of Student and Classroom Related Background Variables on Eighth-Grade Mathematics Achievement in Asean+3 (APT) Countries nomli ilmiy ishda TIMSS topshiriqlarini bajarish mexanizimini ishlab chiqish juda muhim ekanligini ta'kidlaydi. Uning fikricha TIMSS muhitiga o'qituvchi va o'quvchini birdek olib kirish lozim. Olim tadqiqotida o'qituvchi va o'quvchi uchun yaratgan qo'llanmasida quyidagi kichik savollariga javob berishga harakat qildi:

- o'quvchilarning jinsi, matematikani o'rganishdagi o'ziga bo'lgan ishonchi, matematikani o'rganishni qadrlashi, matematikani o'rganishni yoqtirishi, matematikani o'rganishdan zavqlanishi, uy vazifasini bajarishga sarflangan vaqti va darslikda o'tkaziladigan vaqt kabilar sakkizinchi sinf matematika ballariga qay darajada ta'sir qilishi;

- ota-onalarning o'quvchilarning uy resurslari, jumladan, kompyuterga kirishi qay darajadali;

- ta'lim darajasi va o'z o'qish xonasiga ega bo'lish;

- o'qituvchining o'ziga xos xususiyatlari, jumladan, jinsi, yillar tajribasi, mutaxassisligi qay darajada ekanligi;

- sinf xususiyatlari, jumladan, kompyuterlarning umumiy soni.

Olimning fikricha jahonda matematik bilimni yuqori darajada bo'lishi mamlakatning kelajakdagi iqtisodiyotiga bevosita ta'sir qilishi mumkin.

TIMSS 2023 baholashning raqamli formati bugungi kun o'quvchilarning baholashga qiziqishi va motivatsiyasini rag'batlantiradi va o'z navbatida o'quvchilarning *nimani* bilishi va *bajara* olishi haqida yaxshiroq ma'lumot beradi. Bundan tashqari, raqamli format TIMSS ga qog'oz va qalam formatida baholash qiyin bo'lgan kognitiv sohalarini baholash imkonini beradi. Masalan, TIMSS testlarida o'quvchilar matematika muammolarini hal qilish yoki virtual tajribalar va tadqiqotlar o'tkazish uchun jarayon ko'nikmalari va kontent bilimlarini birlashtiradi va qo'llaydi.

“**Bilish**” bo'limi o'z ichiga matematikadan masalalar yechishni olgan bo'lib, masalalar yechish o'quvchilardan sonlarning xususiyatlari va oddiy geometrik jismlar haqidagi nazariy bilimlar, ta'riflarni takroran aytib berish, standart grafik va diagrammalardan ma'lumot olishni o'z ichiga qamrab oladi. O'quvchilar tabiiy fanlardan alohida organizmlar va obyektlarning xususiyatlari, hodisa va jarayonlar,

tabiiy-ilmiy atamalar va o'lovchiliklari haqidagi bilim darajasini namoyish etishlari kerak.

“**Qo'llash**” ga oid test topshiriqlarini bajarishda o'quvchilar hayotiy vaziyatlarni o'zida aks ettiradigan matematik va tabiiy-ilmiy masalalarni yechish, jadval, sxema, diagramma, grafiklarni talqin qilish, tajribalarni o'tkazish ko'nikmalarini namoyish etishlari zarur.

“**Mulohaza yuritish**”ga oid topshiriqlar o'quvchilarning mantiqiy va tizimli fikrlash malakalarini aniqlaydi. Mulohaza yuritishni talab etadigan masalalar taklif etilayotgan vaziyatning yangiligi, savolning murakkabligi, yechish bosqichlari sonining ko'pligi, turli bo'limlardan bilimlarni integratsiyalashning zarurligi bilan bir-biridan farqlanishi mumkin. O'quv faoliyati turlari bo'yicha o'quvchilarning o'quv yutuqlarini baholashga qo'shimcha ravishda maktablarda matematika va tabiiy fanlar bo'yicha berilayotgan ta'lim mazmuni, o'quv jarayoni, o'quv muassasasi imkoniyati, o'qituvchilar salohiyati, o'quvchilarning oilasi bilan bog'liq omillar ham o'rganiladi. Ushbu ma'lumotlar belgilangan fanlarni o'zlashtirish holatini ko'rsatishda asos bo'ladi. Tadqiqot to'rt yilda bir marta dunyoning ko'plab ilmiy-tadqiqot markazlari va tashkilotlari, xususan, AQShning Ta'lim sohasidagi test xizmatlari (ETS-Educational Testing Services), Kanadaning statistik markazi (Statistic Canada), Ta'lim yutuqlarini baholash xalqaro assotsiatsiyasi (IEA)ning Sekretariati ishtirokida o'tkaziladi. Shuningdek, turli davlat mutaxassislaridan iborat maslahat qo'mitalari tashkil etiladi.

O'qituvchilar o'quvchilarning o'quv faoliyati turlari (bilish, qo'llash, mulohaza yuritish) bo'yicha o'quv yutuqlarini baholashda o'tgan yillar davomida tadqiqotda ishlatilgan, biroq konfidensiallik rejimidan chiqqan topshiriqlarni didaktik material sifatida ta'lim jarayonida qo'llashi mumkin. Bu esa TIMSS xalqaro tadqiqotining o'quvchilarning o'quv yutuqlarini baholashning o'ziga xos yondashuvlarini tushinishni ta'minlaydi. Muhimi, matematika va tabiiy fanlardan savodxonlikni baholash vositalari ta'lim texnologiyalari va o'qitish metodikasini takomillashtirishga imkon beradi.

O'zbekiston ta'limida ham bugungi kun o'quvchisi xalqaro baholashga javob berish uchun yangi avlod darsliklari va milliy dastur yaratildi. O'quvchilarning mazmun va kognitivli bilimlarini o'lchashning dastlabki nazariy va amaliy ishlari boshlandi [5; 227-b.].

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori asosida TIMSS xalqaro tadqiqoti O'zbekistonda joriy etilishi belgilab qo'yilgan bo'lib, mazkur tadqiqotlarni joriy etish maqsadida Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi huzurida Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi tashkil etilgan.

Endilikda, O‘zbekiston TIMSS-2023 xalqaro dasturida qatnashishga kirishadi. Bu borada IEA tashkilotining “Xalqaro matematik va ilmiy-tadqiqotlar (TIMSS) 2023 tendensiyalarida qatnashish uchun rasmiy taklifi”ga muvofiq O‘zbekistonning TIMSS dasturida ilk marotaba qatnashishi masalasida Ta’lim inspeksiyasi huzuridagi Ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi o‘rtasida olib borilgan muloqotlar asosida IEA rahbariyatining dastlabki roziligiga erishildi.

TIMSS 2023 yilda mazmun o‘lchovi asosida topshiriqlarni quyidagi struktura asosida olinishi ko‘zda tutilgan (2- jadval):

2-jadval.

4-sinf matematika mazmunli o‘lchov	Mazmuni
Sonlar va amallar (50%)	1. Butun sonlar. 2. Ifodalar, sodda tenglamalar va munosabatlar. 3. Oddiy kasrlar va o‘nli kasrlar.
Geometriya va o‘lchashlar (30%)	1. O‘lchashlar. 2. Geometriya.
Ma’lumotlar bilan ishlash (20%)	1. Ma’lumotlarni o‘qish va tasvirlash. 2. Ma’lumotlarni talqin qilish, birlashtirish va taqqoslash.

TIMSS bo‘yicha xalqaro baholash dasturini ishlab chiqish ta’lim jarayoniga tadbiiq etish qator vazifalar, qoidalarga bo‘ysinishni talab etadi.

Boshlag‘ich ta’lim o‘quvchilarida o‘qish va amaliy jarayonlarda ishlash savodxonlik kompetensiyasini rivojlantirishning tizimli bosqichlarini aniqlash, ta’lim jarayoniga olib kirish va amaliyotda foydalanishning innovatsion usullarni ishlab chiqish, bevosita, ta’lim sifati va xalqaro baholash dasturlari talablariga tayyor bo‘lish imkoniyati oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” to‘g‘risidagi 2022-yil 28-yanvardagi 60-sonli Farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash” to‘g‘risida 2019-yil 29-aprel, 5712-sonli Farmoni.

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-dekabrdagi “Xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi 997-sonli Qarori.
4. Mullis, I.V.S., Martin, M.O., Minnich, C.A., Stanco, G.M., Arora, A., Centurino, V.A.S., & Castle, C.E. (Eds.) TIMSS 2011 Encyclopedia: Education Policy and Curriculum in Mathematics and Science, Volumes 1 and 2. - Chestnut Hill, MA: TIMSS & PIRLS International Study Center, Boston College, 2012. -1088 p.
5. Hutchison, D., Schagen, I. Comparisons between PISA and TIMSS -Are we the man with two watches? / Loveless, T. (Eds.) // Lessons Learned - What international assessments tell us about math achievement. - Washington, D.C.: Brookings Institute Press, 2007. - P. 227-261.
6. Jennifer Anne Evans Gender, Self-Efficacy, and Mathematics Achievement: An Analysis of Fourth Grade and Eighth Grade TIMSS Data from the United States. Lesley University School of Education 2015 32-33-p.
7. Raxmatov M., Zaripov B. Yangi O‘zbekiston Uchinchi Renessans ostonasida. – T: “Zamin nashr”, Toshkent, 2021.
8. “Xalqaro tadqiqotlarda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qish savodxonligini baholash” metodik qo‘llanmasi, T. 2019-y.

“TIL VA NUTQ. NUTQ NIMA?”

Qandimova Nasiba

Buxoro davlat Pedagogika Instituti Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (boshlang'ich ta'lim) 2-kurs magistranti

1-sinf ona tili

Mavzu: Til va nutq. Nutq nima?

Darsning maqsadi:

Ta'limiy maqsad: - O'quvchilarga til va nutq haqida yangi bilimlar berish. Nutqning mohiyatini ochib berish;

Tarbiyaviy maqsad: -O'z fikrini ravon, ifodali, adabiy til me'yorlariga rioya etgan holda bayon etish. Maktabda, ko'chada, oilada to'g'ri muloqot madaniyatini shakllantirish va tarbiyalash;

Rivojlantiruvchi maqsad: - O'quvchilarni husnixat bilan yozish ko'nikmalarini shakllantirish, og'zaki nutq boyligini rivojlantirish.

Kompetensiya:

Nutqiy kompetensiya: o'qituvchi nutqini va mavzuga oid tushunchalarni, o'zaro savol-javob, topshiriqlar, kichik matnlarni tushuna oladi;

Lingvistik kompetensiya: o'zbek tilida nutq tovushlarini to'g'ri qo'llay olish, talaffuz me'yorlariga rioya qilish;

Dars turi: yangi bilim, ko'nikma, malakalarni shakllantiruvchi dars.

Dars metodi: suhbat, guruhlarda ishlash, “Chehralar” o'yini, savol-javob.

Dars jihozi: darslik, mavzuga mos rasmlar, rebus, tarqatmalar materiallar noutbuk.

Dars jarayoni va texnologiya

Ishning nomi	Bajariladigan ish mazmuni	Metod	Vaqt
1-bosqich Tashkiliy qism	O'quvchilar davomati aniqlanadi. Sinfning darsga tayyorgarligi tekshiriladi.	Savol-javob	2 daqiqa
2-bosqich (Refleksiya) ehtiyoblarni aniqlash	Dars shiori tanlanadi. Dars davomida rioya qilish lozim bo'lgan qoidalar belgilanadi.	Tushuntirish	2 daqiqa

3-bosqich darsning borishi.	1. O'tgan darsni so'rab baholash, mustahkamlash,chiroyli yozuv malakalarini tekshirish. 2. Yangi mavzuning bayoni 3. O'quvchilarga mashqlarni bajartirish. 4. Lug'at ishi.	"Tushunchalar tahlili" metodi suhbat, "Ta'rifimdan meni top"metodi, "Chehralar" metodi.	5 daqiqa 6 daqiqa 15 daqiqa 5 daqiqa
4-bosqich mustahkamlash	1. Yangi mavzuni mustahkamlash uchun darslikdagi savollardan o'quvchilarning bilim darajalariga qarab boshqa savollardan ham foydalanadi. 2. Rebus hal etiladi.	Rebusni hal qilish Muammoni izlanish	4 daqiqa 2 daqiqa
5-bosqich Baholash Darsni yakunlash	O'quvchilarning darsda ishtiroki hisobga olinib, reytinggi e'lon qilinadi. Dars yakunlash.Uy vazifasini berish.	Ball qo'yish, Taqdirlash. Topshiriq berish, tushuntirish.	2-daqiqa 2- daqiqa

I.Tashkiliy qism:

(O`quvchilar bilan salomlashish).

O`qituvchi:

Salom mening aziz o`quvchilarim,

Ham mehribon, qadrdonlarim.

Davomatni aniqlash:

Kim sinfda navbatchi,

Har narsadan xabarchi?

(Sana, hafta kuni, faslni aniqlash.Q`ish faslining tarovati haqida ko`rgazmalar)

Qishda tabiatda qanday o`zgarishlar bo`ladi?

-Hammayoq oq choyshabga burkanadi;

-Daraxtlar oq libos kiyadi;

-Qushlar issiq o`lkalarga uchib ketadi.

Bizning shiorimiz:

Bilagi zo`r birni yiqar

Bilimi zo`r mingni.

-Bolalar, hozir darsimizning nomi nima?

- Ona tilim jon-u dilim,

Sen-la olay koni ilm.

Maqsadimiz:

-Chuqur bilim egasi bo`lib, yurtimga, xalqimga sodiq farzand bo`lish.



Bizning shiorimiz:

Bilagi zo`r birni yiqar

Bilimi zo`r mingni.

-Bolalar, hozir darsimizning nomi nima?

- Ona tilim jon-u dilim,

Sen-la olay koni ilm.

Maqsadimiz:

-Chuqur bilim egasi bo`lib, yurtimga, xalqimga sodiq farzand bo`lish.

Oltinqoida.

1.O`zaro hurmat

2. Faollik

3. Darsda tartibni saqlash

4. Chiroyli yozuvga amal qilish

Sinf o‘quvchilari o‘zaro 3 guruhga bo‘linishadi:

1-guruh“Bo`g`in”

2-guruh“So`z”

3-guruh “Gap”

(Har bir guruh partalari ustiga A-4 formatdagi karton qog‘oz va konvert ichida archa daraxti, palma daraxti, terak daraxti,uycha, bulut,quyosh,qushlar, to`nka, o`t-o`lanlar rasmlar qo`yiladi. Dars davomida har bir to`g`ri javob uchun bittadan rasm yopishtirib boriladi.Dars so`ngida “Bog`dagi uycha” manzarasini to`liq tasvirlagan guruh g`olib sanaladi.)

II.O`tgan mavzuni mustahkamlash.Uy vazifani tekshirish va baholash.

3-mashq. Berilgan so‘zlardan gap tuzing va yozing.

1. Bilan, lola, bola, gul, lola, bilan, ona – Ona bilan nola, gul bilan lola
2. Yurting, beshiging, oltin, ona- Ona yurting oltin beshiging
3. Tanda, sog`lom, aql, sog`-Sog` tanda sog`lom aql
4. O`yla, keyin, so`yla, avval-Avval o`yla keyin so`yla.

O‘qituvchi tomonidan maqollar o‘qiladi, o‘quvchilar daftarlarini partadoshlari bilan almashgan holda tekshirib oladilar. Maqollar mazmuni izohlanadi.

“Tushunchalar tahlili” metodi o‘tkaziladi.


Tushuncha	Ta`rif
Matn	
Gap	
Ona tili	

III.Yangi mavzu bayoni.

Mard maydonda sinalar.

1. Yuqoridagi fikrdan nimani tushundingiz?

2. Hayvonlar tovushu ham nutq sanaladimi?



Birinchi rasmda yovvoyi hayvonlar: fil, she'r, ayiq, burgut kabilari tasvirlangan. Ular tabiat qo'ynida kezi yurishibdi. Yovvoyi hayvonlar ba'zida insonlar uchun xavf tug'dirishi mumkin.

Keyingi rasmda uy hayvonlari tasvirlangan. Rasmda biz it, kurka, echki, sigir, quyon kabilarni ko'rishimiz mumkin. Ular uyda boqiladi va insonlarga anchagina foydasi bor.

Shu o'rinda o'qituvchi o'quvchilardan kim qaysi uy hayvonini yoqtirishini va qaysi uy hayvonini uyida saqlashlarini so'rab o'tadi.

Yodda tuting. Qoidani ko'chirib oling.

Og'zaki nutq-bu biz eshitayotgan yoki talaffuz qilayotgan nutq. "Og'zaki" so'zi "og'iz"so'zidan olingan bo'lib, og'iz orqali ifoda etiladigan nutq hisoblanadi.

Yozma nutq-bu biz o'qiydigan yoki yozadigan nutq. yozishda biz faqat harflar va yozma belgilardan foydalanamiz.

•Og'zaki va yozma nutq bir-biridan nimasi bilan farq qiladi?

2-mashq. Shartlarni bajaring va izohlang.

1.Birinchi va ikkinchi ifodalarni so'z bilan yozing. Yozishda nechta So'z ishlatdingiz?

$$5 > 3 \quad 3 + 5 = 8$$

2.O'qing va nuqtalar o'rniga tushirib qoldirilgan so'zni qo'yib, fikrni yakunlang.

Nutqda asosiy vazifani so'zlar bajaradi. Faqat insongina so'zlardan so'zlaridan foydalanadi. Shuning uchun.....faqat insonga xos.

DAM OLISH DAQIQASI

Ko'p yozadi qo'llarimiz,

Ham charchab ko'zlarimiz.

Bir, ikki, uch,

To'plab oldik kuch.

Yana yozamiz yana,

Harflarimiz ko'p sara.


3-mashq. Hayvonlar chiqaradigan tovushlarni yozing.


O'quvchilar qo'liga hayvonlar rasmi tushirilgan rasmlar beriladi. Har bir qatordan o'quvchilar turib, berilgan hayvonning tovushini o'xshatib berishi kerak. Qolgan o'quvchilarga savol beriladi.


Nima uchun hayvonlar chiqaradigan tovushni "nutq" deb atamaymiz? Javobingizni izohlang.



4-mashq

 4-mashq. O'qing. Bu qaysi ertak?

 Yana nima uchun kelding?
"Qaynar xumcha"ni olding, "Ochil dasturxon"ni olding, yana nima kerak?

 Meni bu gal ham aldading,
Laylakvoy. "Ochil dasturxon" o'rniga boshqa bir dasturxon beribsan. Endi sendan bir narsa so'rayman, menga "Ur to'qmoq"ni ber.

Ushbu mashqda "Ta'rifimdan meni top" o'qituvchisi ham qo'llaniladi. O'qituvchi ertakni bolalarga eslatadi (undagi detallar bilan), o'quvchilar ziyiraklik bilan topishlari kerak bo'ladi.

V. YANGI MAVZUNI MUSTAHKAMLASH.

"Chehralar" metodidan foydalanib, dars mustahkamlanadi.



(Faol ishtirok etgan o`quvchilar rag`batlantiriladi. Dars haqidagi fikrlari so`raladi.)

Kundalikni ochdik biz

Uyga vazifani yozdi biz

Ona-tilidan olgan bilimni,

Unutmasdan yozdik biz.

VII.Uyga vazifa. 5-mashq.

MECHANISM OF TRANSMISSION OF CORONARY HEART FAILURE

Xoljigitov Xushnud Toshtemir o'g'li

Zarnigor Asadova Ilyos qizi

Rayxon Kamalova Sobirjon qizi

Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti 3-bosqich talabalari

+998943572903

+998934732140

+998931519750

ABSTRACT

To study the relationship between coronary artery disease and the level of lipid profile in patients with coronary heart disease. Materials and methods. A retrospective study of 75 patients with two or more injuries of the coronary arteries as a result of inpatient coronary angiography in the SVKTTM in the period from 2019 to 2020 was carried out. Results. An inverse relationship between the level of SLPL and the risk of developing JIC has been identified and confirmed. There is a direct correlation between ZYuLP and UXS, especially triglyceride and ZPLP levels. In the unfavorable group, high levels of liver enzymes, especially ALT, were found, as well as a direct correlation between AST and FPLP levels. AST is not uncommon in patients with ischemic heart disease. A high inverse correlation has been found between WPLA levels and sugar levels, especially glycated hemoglobin. Conclusion. A decrease in high-density lipoprotein is a common factor in hospitalization and repeated coronary angiography. AST is not uncommon in patients with ischemic heart disease.

Keywords: *ischemic heart disease, coronary angiography, myocardial infarction, low density lipoproteins, high density lipoproteins.*

INTRODUCTION

In Uzbekistan, as in many other countries of the world and cardiovascular disease morbidity and mortality rate of the population takes a leading place in its structure. Uzbekistan and European cardiologists member of the association. According to RIKIM, he was hospitalized 59% of all patients have ischemic heart disease. Large epidemiological studies of serum cholesterol levels increase and level of expression of atherosclerosis, as well as cardiovascular there is a close relationship between the rate of morbidity and mortality from these diseases showed that there is a connection. Serum total cholesterol (UCS), density an increase in the level of low-density lipoprotein (ZPLP) and high-density lipoprotein (ZYuLP) decrease in YuIK, acute blood circulation in the brain the risk of disorders, the overall mortality rate and cardiovascular diseases causes death to increase.

Coronary artery damage – ischemia, MI, the development of re-MI and ultimately complex heart rhythm disturbances and with the terminal stage of chronic heart failure (CHF), strong, leading to deterioration of the prognosis related to its completion is a factor. In most cases, tolerance to physical exertion is high, MI in coronary vessels in relatively stable patients who did not undergo changes are determined "accidentally". Coronary vascular injury correction mainly left coronary percutaneous coronary intervention in the artery (ChKA), then two-component provides antiaggregant therapy, correction of SYuE. But, as well as disease prognosis in patients with coronary artery damage with uncorrected lipid metabolism disorders, enzymes there is also a connection between the situation.

Main body

According to the result of 12-month follow-up, patients 2 divided into groups: 1 group - patients with a positive outcome and 2 group – research an adverse effect was observed 3 months after the start, then another 1 year patients under control during The concept of "unpleasant consequence" is included had one of the following events: death, MI recurrence, coronary escalating scarcity, development and escalating of SYuE

(According to ShOKS data modified by V. Yu. Mareev, 2016), re-hospitalization (5). Group 1 included 41 patients with a positive course of the disease, Group 2 and 34 patients with unpleasant consequences of the disease were included in the group lipid spectrum indicators, including total cholesterol, triglycerides, high, the level of low and very low density lipoproteins, as well as atherogenicity coefficient, indicators of biochemical analysis: alanine aminotransferase (ALT) and aspartate aminotransferase (AST), bilirubin, urea, creatinine levels was studied.

Estimated differences in laboratory parameters in both groups. It seems possible to do it and it is already known high cardioprotective properties of high-density lipoproteins and atherogenicity confirms the negative impact of the increase in the index on the transition of the YuIK. Also It is noteworthy that the ALT level is high in the 2nd group with unpleasant consequences (corresponding to 39.4 ± 20.7 to 28.8 ± 12.1 respectively). All patients in order to clarify the importance of dyslipidemia divided into groups: ZYuLP < 40 mg/dl and ZYuLP > 40 mg/dl, as well as ZPLP < 100 mg/dl and ZPLP > 100 mg/dl.

Conclusion

1. A decrease in high-density lipoproteins often leads to hospitalization a factor in consideration of admission and repeat coronary angiography is considered
2. AST is a negative factor in patients with coronary artery damage there is no possibility of decalculation

REFERENCES

1. Агабабян И.Р., Искандарова Ф.И., Мухтаров С.Н. Роль маркеров воспаления жировой ткани как основной фактор в развитии артериальной гипертензии у больных с метаболическим синдромом. The priorities of the word science: experiments and scientific debate. Noth Charleston SC. USA. 2019 July. 27-31 стр.
2. Агабабян И.Р., Исмаилов Ж.А., Рузиева А.А. Хроническая сердечная недостаточность у молодых пациен- тов с ожирением на фоне хронической обструктивной болезни лёгких. Достижения науки и образования. №3 (57). Москва. 2020 г.84-87 стр.
3. Агабабян И.Р., Садыкова Ш.Ш, Рузиева А.А. Оценка состояния больных, перенесших инфаркт миокарда, осложнённый хронической сердечной недостаточностью на фоне приёма кардиопротекторов.
4. Soleeva S. Sh., Djabbarova N. M., Shodiyeva G.R. «Place of hypolipidemic therapy in the complex treatment of stable angina» International scientific review of the problems and prospects of modern science and education, Boston. USA. December 25-26, 2019.p 115-117.
5. Takata Y., Ansai T., Soh I. et al. Serum total cholesterol concentration and 10-year mortality in an 85-year-old population. Clin. Intervent Aging 2014; 9:293–300.

GLAUCOMA DISEASE CLINICAL VIEW AND TREATMENT METHODS

Xoljigitov Xushnud Toshtemir o'g'li

Zarnigor Asadova Ilyos qizi

Rayxon Kamalova Sobirjon qizi

